

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
SAN`AT KAFEDRASI

5140900 - kasb ta`limi (5211200-amaliy san`at)
ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun
Muqimova Ruxsoraning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: **Amaliy san`atda sovg'a buyum tayyorlash texnologiyasi**



Bajardi:

bitiruvchi: **Muqimova Ruxsora**

Ilmiy rahbar:

o`qituvchi: **Avliyoqulova N.M.**

Ilmiy maslahatchisi:

p.f.d. dots: **Abdullayev S.F**

Taqrizchi:

O`z.B.A qoshidagi Bux.shah.T.S.I.M.I

oily toifali o`qituvchi: **Z.Yodgorov**

Kafedra mudiri:

p.f.n. **Madrimov B.X**

Fakultet dekani:

p.f.d. prof. **Barotov. Sh.R**

Buxoro - 2014 yil

Amaliy san'atda sovg'a buyumlar tayyorlash texnologiyasi.

Reja:

Kirish

I.Bob. O'zbekiston xalq amaliy san'ati haqida ma'lumot.

- 1.1. O'zbekiston xalq amaliy san'ati tarixi.
- 1.2. Xalq amaliy san'ati turlari.

II. Bob. Amaliy san'atda sovg'a buyumlar tayyorlash jarayoning borishi.

- 2.1. Naqqoshlikda sovg'a buyumlar tayyorlash.
- 2.2. Yog'och o'ymakorligida sovg'a buyumlar tayyorlash.
- 2.3. Kulolchilikda milliy o'yinchoqlar tayyorlash.
- 2.4. Zardo'zlikda sovg'a buyumlar tayyorlash.
- 2.5. Kashtachilikda sovg'a buyumlar tayyorlash.

III.Xulosa.

Summary

This diploma work expresses broadly directed intentions, through which the folk applied art should generate consciousness, dignity, faith and beliefs harmonic generation, the development of their spirituality, education fully committed individuals. For good reason, our young people are different from the youth of other countries their knowledge, thought, culture and creativity.

We will teachers on each of our lesson should bring to our youth, such notions of national applied art like painting, gold embroidery on metal and wood carving.

Passing knowledge of youth with proper use of new educational technologies, plan their activities, taking into account education, all of its components, we will achieve the goals set before him.

Origins of decorative and applied arts goes back centuries. Closely associated with the life, customs and traditions, it was the widespread form of art. Modern craftsmen carefully preserving tradition in decorative arts, creatively develop its enrich new content.

Their work is distinguished by a variety of art forms, treasure imagination and techniques. In each product reflects the poetic soul of the Uzbek people his wisdom, talent aspiration beauty. In recent years, the government adopted resolutions aimed at the revival of folk arts and crafts. The main task of organizations recover forgotten crafts, craftsmen in production and marketing of products.

Kirish

Yurtboshimiz I.A. Karimov "O'tgan davr mobaynida eski to'z umdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni haror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb harash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim" ekanini ko'p marta uqtiradi.

Yangi fuqarolik jamiyati qurish sharoitida kasb-hunar borasidagi milliy an'analarni qayta tiklash, ularni zamonaviy yuksak texnologiyalar bilan uyq'unlashtirish, ta'limning barcha bo'q'inlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Mamlakatimizda erkin fuharolik jamiyatini qurish, avvalo, yoshlarimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovatiga, kasb mahoratiga, ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida takomillashtirishga, kadrlar tayyorlash jarayoniga malakali mutahassis-o'qituvchilarni, mohir kasb ustalarini jalb etishga bog'liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan mustaqilligimizning ilk yillaridayoq bayon etilgan bo'lib, huquqiy jihatdan Kadrlar Tayyorlash Milliy dasturida asoslab berilgan.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat l muhimdir. «Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi Prezidentimiz I.A. Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz

tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak».

Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga haratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda respublikamiz hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analari, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.

Qadimda odamlar yashayotgan maskanlariga, devoru toshlarga ov jarayonlari, jangu jadallar, bazmlar, tantanali marosimlarni aks ettirganlar. Afrosiyob, Varahsha, Bolaliktepa va boshqa obidalar qoldiqlari shundan dalolat beradi. Keyinchalik ayrim sabablarga bilan tirik mavjudodni aks ettirish taqiqlab qo'yildi. Shuning uchun tasviriy san'atda o'simliksimon, geometrik naqshli bezaklar katta o'rin egalladi.

Rang-barang o'simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o'zaro joylashuvida chuqur mazmun yashirin. Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustivordir. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda, ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, uylarni ajoyib naqshu nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar hotirjam, ruhiy osoyishtalik og'ushida bo'lishi, o'z oq umr ko'rishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg'aganlar.

Keksa ustalarning aytishicha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan va bo'yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan

unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak bo'lgan.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Husrav, Kamoliddin Behzod, Moniy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar hayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bo'lishga undaganlar.

Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda «Olloh go'zal va u go'zallikni sevadi» deyiladi. Demak, Islomning estetik nuqtai nafari go'zallikka oshno bo'lmoqdir. Olloh go'zal ekan, u yaratgan odam ham, u bunyod qilgan olam ham, bandalarga hadya etgan noz-ne'matlari ham go'zaldir.

Arab imlosi, q'azal, bitiklar, naqshlar, me'moriy obidalar, tasviriy san'atning islimiy-tilsimiy turlari eshitish va ko'rish a'zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yahlitligi ramziy-tilsimiy mazmun qobiq'iga o'ralgan. Naqsh, chodraga o'ralgan ayolga o'hshaydi. Naqsh - haqqoniyatni qo'l bilan ushlab ko'rish emas, go'zallikning mohiyatini anglash, shu go'zallikni dilda tasdiqlash, chodra ortidagi holatga o'zni tayyorlash va unga kirib borish timsolidir.

Mustaqillikka erishgan xalqimiz san'atshunoslaridan madaniy meros hazinasiga munosib yodgorlik yoq i yodnomalarni izlab topish, ularni chuqur o'rganib maq'zini chaqish, ular tashkil etgan ijod pillapoyalaridan ko'tarilib yangi zamon madaniyati ravnaqiga hizmat etish kabi g'oyat mas'ul va e'tiborli ishlar ko'lami kutib turibdi. O'zi bir olam bo'lgan me'morlik san'ati va u bilan chambarchas bog'liq xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, kandakorlik kabi sohalardagi ijod namunalarini o'rganish yo'lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud.

Ko'p yillik izlanishlar ta'kidlashga imkon beradiki, xalq me'morlari, xalq ustalari taomiliga hos anchagina muammolar bor, ulardan biri ramziy bezaklarni o'qish alifbosining to'z ilmaganligidadir. Kitobni yozishdan maqsad shundaki,

me'moriy bezak va amaliy san'at yo'nalishda tayyorlanayotgan kadrlarimizni jahon andozalari talablariga javob bera oladigan barkamol qilib tarbiyalashdan iborat. Buning uchun maktablarda, kasb-hunar kollejlarda va oliy o'quv yurtlaridagi o'quvchi-talabalarimizni ajdodlarimiz qoldirgan, ma'naviy merosimiz bo'lmish me'moriy yodgorliklar va amaliy san'at asarlaridagi ramziy bezaklarni o'qiy olishga, undagi mantiqiy falsafiy g'oyalarni to'g'ri anglashga o'rgatish zarurdir.

Hozir ta'lim tizimida amaliy san'at turlari: naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik, zardo'zlik, kulolchilik o'rgatilmaoqda. Ushbu san'at turlarini o'rgatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa-da, ayrim muammolar mavjud. Ulardan biri didaktikaning muhim tamoyillaridan biri – ko'rgazmalilik to'liq amalga oshirilmayotganligidir. Amaliy san'at turlari bo'yicha elektron ko'rgazmali qurollar etarli emas. Bu esa raqobatdosh mutahassislar tayyorlash imkonini cheklab qo'ymoqda.

Amaliy san'atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulo'ayib borgan sari amaliy san'at ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yahshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borish jarayonida qo'l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-ro'o'zor buyumlariga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh o'ymakorligi, suyak o'ymakorligi, keyinchalik esa yog'och o'ymakorligi san'at i sekin astalik bilan o'z rivojini topdi.

Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'at korlar shu davrlarda paydo bo'ldi. Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topib bordi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at va san'atkorlar hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak hislat va fazilatlarni kamol topdirib bordi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik va yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga davat etdi.

Arheologik qazish ishlari natijasida Surhon vohasidagi Yumalok tepa tubidan topilgan yog'och o'ymakorligi topilmalari mazkur joylarda bir, bir yarim ming yil muqaddam san'at ning bu turini yaxshigina rivoj topganligini olimlarimiz o'z izlanishlarining mahsuli sifatida isbot etib berishdi. Hali-hano'z bunday noyob topilmalar nafaqat Surhon vohasida, balki Samarqand, Buhoro, Xiva, Shahrisabz, boshqa qadimiy shahar, qishloklardan V-VI asrlarga tegishli bo'lgan san'at asarlari topilmoqda.

Samoniylar davrida amaliy bezak san'at i, ayniqsa kulolchilik, shishasozlik va yog'och o'ymakorligi rivojlandi. Monumental memorchilikka katta etibor berildi, turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalari, saroylar, mamuriy binolar, savdo rastalari, hammomlar, masjid va madrasalar qurildi. Nurilishda asosan pishiq g'ishtdan foydalanildi, bazan bino devori hom g'ishtdan, tomi-gumbazi pishiq g'ishtdan ishlandi. Hunarmand-ustalar tomonidan binolarni ko'rkam va chidamli bo'lishligiga e'tibor haratildi, bor bilim va kuchlarini safarbar etdilar.

"Samoniylar maqbarasi rejasidan tortib, hajmiy to'z ilishigacha geometrik tartib va prinstip asosida yaratilganligi aniqlandi. Maqbara me'mori amaliy geometriya va matematikadan chuqur habardor bo'lganligi shubhasizdir, aks holda, u bunchalik go'zallik meyorini topolmasdi. Ehtimol tasodif dersizo' Yo'q tarix taqazosi bu! Algebra faniga asos solib, logarifm, algoritm so'zlariga nomi yo'o'rilgan Muhammad Xorazmiy (787-850) me'morchilikka tasir ko'rsatgan, mutafakkir olim Abu Nasr Farobiyning (870-950) amaliy geometriya sohasidagi risolalari memorlar uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. Koinot bo'yicha tekshirishlar olib borgan, astronomiya, geometriya va trigonometriyaga oid risolalar muallifi Abu Rayhon Beruniyning memorchilikka hissa qo'shgan shubhasizdir. Ko'z atishlar shuni ko'rsatadiki, arhitektura bilan bog'liq amaliy matematika va geometriya doimo memorlar etiborida bo'lgan".

VI-VIII asrlarning boshlariga kelib ko'shk, qo'ro'onlar, shaharlarga ibodathonalar va saroylar qurildi. Bu davrda yog'och va ganch o'ymakorligi yanada rivoj topdi, devoriy rasmlar rang-barang bo'lishiga etibor haratildi, buni Afrosiyob, Varahsha va Yumaloktepa singari madaniy yodgorliklarimiz misolida

ham ko'rishimiz mumkin. Bu kabi san'at asarlari, suo'diylar madaniyati bizga, o'sha davrlarda jumhuriyatimiz hududida yashagan xalqlar qo'shni xalqlar bilan savdo-sotiq olib borgan, bu esa bizga qo'shni xalqlar bilan ham madaniy alokada bo'lgan deyish imkonini beradi.

Arablar VII-VIII asrlarda ibodathonalarni, tasviriy san'at asarlarini yo'q qilib tashladilar. Natijada san'at da sal kam bir asr tushkunlik hukm surdi.

Arablar O'rta Osiyoni zabt etgunlariga qadar mahalliy xalq mabudalari topilgan. Har bir honadonning jamoada tutgan o'rni va boyligiga qarab, o'z mabudasi (hudosi) bo'lgan. Odatda bu mabuda eshik tepasiga qo'yilgan. Honadon sohibi mavridi bilan yog'och dan o'yilgan yangi mabudani harid qilib, almashtirib turgan. Bunday jarayon yog'och o'ymakorligi san'ati qadimiy bo'lganligidan dalolat beradi. Arablar istilosi oqibatida tasviriy san'at ning ko'p turlari qatori yog'och haykallar ishlash ham butkul barham topdi. Biroq Islom dini bu san'at ni tag-tugi bilan yo'qota olmadi. Yog'och tarashlovchi usta naqqoshlar o'z san'at ini yog'och da dov-darahtlarni aksini ifodalash, oddiy Lchiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san'at i otadan-bolaga, avloddan-avlodga meros bo'lib o'taveradi.

Albatta muallifning takidlab o'tganidek, Islom dini paydo bo'lgan ilk davrlarda qabr ustiga yodgorlik qo'yish man qilingan. Bu kabi qonunlarga amvoiylar va abbosiylar ilk hukmronligi davrida rioya qilingan. Ammo, keyinchalik arablar jumhuriyatimiz hududida dastlab masjidlar qurdilar, qadimiy ibodathonalarni masjidlarga aylantirdilar. Bunga misol qilib Buhoroning Moh bozoridagi ibodathonani olib ko'rishimiz mumkin. Nihoyat arhitektura va amaliy bezak san'at ida, hunarmandchilikning turli sohalarida jonlanish boshlandi. 862 yilda Al - mantasir va Fotiddin, so'ngra ruhoniylar fatvosi bilan "Amir al-maman"ga atab maqbara bunyod qilindi. Keyinchalik esa Sharqning Islom tarqalgan boshqa mamlakatlarida ham shu kabi yodgorliklar qurdirish rusim bo'ldi. IX-X asrlarda qurilgan, Buhorodagi Samoniylar maqbarasi shular jumlasidandir. Bu maqbara o'rta Sharqdagi eng qadimiy maqbaralardan birinchisi bo'lsa, ikkinchisi esa biz yuqorida qayd qilib o'tgan Samarqand too'alarida joylashgan

Tim qishlog'idagi turli naqshu - nigorlar bilan bezab ishlangan "Arab ota" - "Amir al - maman" ("Arablar homiysi") maqbarasidir.

1960 yil boshlariga kelib shoir va jo'g'rofiya olimi Farg'ona pedagogika institutining professori Nikoley Lionov tomonidan kashf qilingan bu maqbaraning peshtoqiga bitilgan naqshinkor arabiy bitiklardan malum bo'lishicha, bu maqbara hijriy 367, melodiylar 977 yillarga tegishlilik aniqlandi.

Islom dini tirik mavjudotlarni tasvirlashni qat'iy man etgani tufayli tasviriy san'at rivojiga imkon bermadi, faqat amaliy bezak san'ati rivoj topdi. Masjid, maqbara, saroy, madrasalar turli tuman naqshu - nigorlar bilan bezatila boshlandi.

VIII-IX asrlarda ayniqsa Buxoroda badiiy hunarmandchilik keng-ko'lamda rivoj topib bordi. IX-X asrlardan girih san'ati yuksaldi. Arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarildi. Masalan, shu davrlarda kufiy yozuvidan keng foydalanilgan bo'lsa, XI-XII asrlardan esa nash yozuvi memorchilikda keng - ko'lamda ishlatila boshlandi.

Madaniyat rivojlanib borar ekan, ajoyib memorchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan o'z-o'zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashdi, shu jumladan darvoza, eshik, ustun va ravoqlari yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa yog'och o'ymakorligini tez suratlar bilan o'sib borishiga imkon yaratib berdi. ymakor ustalar bulardan tashhari uy-ro'zo'or buyumlarini bezashda ham o'z san'atlarini mohirona namoyish etishdi. Ustalar tomonidan turli xil stollar, kursilar, xontaxtalar, laganlar, lavhlar, sandiqlar, qutichalar, qalamdonlar va hakkazolar yaratildi.

Chingizxon bosqinchiligi tufayli XIII asrga kelib madaniy hayot izdan chiqdi. o'rta Osiyodagi Buhoro, Samarqand, Urganch, Balh va Mavr kabi bir qator shaharlar Chingizxon boshchilik qilgan mo'g'il bosqinchilari tomonidan ostin-ustin qilib tashlandi.

Bu vayronagarchiliklarga XIV asrning ikkinchi yarmida oqsoq Jahongir Amir Temur o'rta Osiyo xalqlarini birlashtirish orqali, chek qo'ydi va xalqimizning madaniyati, san'ati, shu jumladan, yog'och o'ymakorligining rivojiga o'zi qurdirgan obidalari, asori-atiqalari bilan o'z hissasini qo'shdi.

Samarqandga yirik-yirik san'at korlar, shoiru ulamolarni, hunarmandu ustalarni to'plab ko'plab jome masjidleri, madrasalar, honaqohonlar, saroylar va boshqa ulkan inshootlar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar o'rtasida bo'lgan o'zaro to'qnashuvlar tufayli madaniyat rivojiga salbiy tasirini o'tkazdi.

XVI asrda arhitektura inshootlarining ko'rinishi yanada takomillashdi, ko'plab jamoat binolari, karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, shaharlarda hammom, tim va boshqa savdo rastalari qo'rila boshlandi. Monumental binolarning tarhi, qiyofalariga o'zgartirishlar kiritldi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Jome masjidleri saroy tipida serhasham qilib qurildi, go'z ar va mahallalardagi masjidlar qishlik va yozlik qilib qurilib, katta ayvonlar, o'yma ustunli va eshiklari ham o'yma bezaklar bilan bezatildi.

Asrimizga qadar san'at asarlari turli qirg'inbarotlar tufayli vayronalar ostida qolgan bo'lsa, asrimizda "qizil ko'lanka" ostida qoldi. Xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni ro'kach qilib qatao'on qilishdi. hunarmand ustalarni esa shahsiy boylik orttirishida ayblab faoliyatlari to'htatib qo'yildi. Biroq xalqimizning fidoyi farzanlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirhamid Yunusov, Shamsiddin o'ofurov, Yunus Ali Musaev, Usmon Ikromov, quli Jalilov, Sulaymon Ho'jaev, haydar Najmiddinov, Toshpo'lat Arslonqulov, Maqsud Qosimov, Mahmud Usmonov, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Mahmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Haydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abdurahmonov va boshqa bir qator hunarmand ustalar o'zlarining hunar sirlarini maktabda va maktabdan tashhari muassasalarda yoshlarga o'rgatishni yo'lga qo'yidilar.

I.Bob. O'zbekiston xalq amaliy san'ati haqida ma'lumot.

1.1. O'zbekiston xalq amaliy san'ati tarixi.

Amir Temur davrida o'zining rivojlanish davrini boshidan kechirdi. Buxoro zardo'zlari, Samarqand kandakorlari, Xorazm kulollari, Farg'ona chevarlari yaratgan xalq amaliy san'atining namunalari hozirgi kunda ham o'zining rivojlanishi davri san'atini ko'z-ko'z qilmoqda. O'zbekiston hududida qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari vujudga kelib shakllangan. Bu markazlarda xalq ehtiyoji uchun eng kerakli buyumlar san'at asarlari qatorida ishlab chihirilgan va sotilgan. Bu an'ana hozir ham davom etmoqda va rivojlanmoqda.

O'zbek xalqi ajdodlari tasviriy san'at sohasi ibtidoiy jamiyat davridan boshlab ajoyib asarlar yaratganligini arheologik kashfiyotlarda tasdiqlandi. Respublikamizning juda ko'p joylarida, ayniqsa Boysun, qurama toq tizimlari, Samarqand tevaragidagi tog'lardan topilgan qoya toshlarga bitilgan ibtidoiy rasmlar o'zining realligi, rang - barangligi bilan hozirgacha kishilarni hayratda qoldiradi. Ayniqsa etnik davrda yaratilgan turli hildagi amaliy bezak san'ati namunalari qadimiy Xorazmliklar, Baqtriyaliklar, So'g'diyoniylar, Marg'ilonliklarning yuksak madaniyatiga ega ekanligini namoyon qiladi.

O'rta osiyoliklarning mazkur ajdodlari yaratgan ajoyib obidalar bizlargacha yetibgina qolmay, ularning ishlab chiharish an'analari avloddan-avlodga o'tib mohir ustalar tomonidan rivojlantirilgan. hozirgacha saqlanib kelgan o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq ustalarining ganch, yog'och va marmardan yaratilgan chiroyli o'ymakorlik buyumlari. Naqshli sopol idishlari, rang -barang to'qimachilik va kashtachilik mahsulotlari, misgarlar va zargarlar yaratgan ajoyib buyumlari va bezaklar umumiy harakterga ega bo'lib, har bir etnosning o'ziga hos hususiyatlarini ham namoyon qiladi.

O'zbek xalqining qadimiy amaliy san'ati deganimizda biz hunarmandchiligining albatta xalq asosini tashkil etib kelgan amaliy san'at haqida fikr yuritishimiz kerakligini siz darhol tushungan bo'lsangiz kerak. Chunki xalq amaliy san'ati xalq hunarmandchiligining asosini tashkil etib kelgan.

Zeroki, o'zbek xalqi hunarmandchiligining tarixiy ildizlari xalq amaliy san'ati asosida taraqqiy etib juda qadimgi, mumtoz hamda bo'z rukvor asriy tajribalarga tayanib o'zining ser unum hamda serjilo, shu bilan bir vaqtda har bir insonni hayratga solib kelgan madaniy merosdir.

Odamzotning madaniyatga bo'lgan ilk qadami ibtidoiy davrdan boshlanganligini qayd etishimiz kerak. Turmush, tirikchilik hamda uy-ro'zg'or taqozosi talablari bilan vujudga kelgan buyumlar, kundalik zarurat uchun kerakli bo'lgan asbob-anjoblar yasash hamda ularni har hil ko'rinish va shakllarda ijod etish har bir davrning majburiyatiga aylanib qolgan. Bu buyumlar turmushda foydalanishga qulay, sodda hamda katta kuch talab qilmay qilishiga haramay yillar o'tishi bilan ularning zamon talabalariga moslanishi, yangicha nusxa hamda ko'rinishlarida ijod etilishi o'z davrining mohir ustalaridan ijodiy izlanish va safarbarlik talab etib kelgan. Madaniy merosimiz hisoblanmish mahobatli me'moriy obidalar, noyob va go'zallikni o'zida tarannum etgan zebu-ziynatlar, har hil ro'zqor anjonlari, ip va ipakdan tikilgan matolar, loy va ganchdan yasalgan sopol hamda chinni idishlar, hum va humdonlar, kulolchilik san'atiga mansub bo'lgan buyumlar barchasi xalqimizning moddiy hamda madaniy merosi bo'lib kelmoqda. Shu boisdan xalq ustalari yaratgan noyob asarlarga e'tiborimiz yanada kuchaymoqda.

Usto boboq alonlarimizning hayotiy hamda ijodiy yo'lini o'rganish, ularning sermahsul an'alarini bilish, ular yaratgan uslub va yo'llarni yanada takomillashtirish, go'zallikka bo'lgan intilishlarini chuqur his etish davrimiz talab taqazosi bo'lib qolmoqda.

Xalq amaliy san'ati hamda hunarmandchilik markazlari:

Qadimshunos va tarixchi olimlarimizning tadqiqotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston jabhasida qadimdan har vohaning amaliy hunarmandchiligi markazlari vujudga kelgan va asrlar davomida shakllanib borgan. Bu markazlarda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalq ehtiyoji uchun kerakli bo'lgan buyumlar ishlab chihirilgan va bozorlarda sotilgan. Farg'ona viloyatining Marg'ilon, Qo'qon, Namangon viloyatining Chust, Andijon viloyatida Shahrihon, Buhoro viloyatida

Gijduvon, Buxoro shahri, Qashqadaryo viloyatida Harshi, Samarqand viloyatida Urgut, Surhondaryo viloyatida Boysun ana shu markazlardandir. Bu shaharlarda hunarmandlar alohida-alohida yoq i to'p-to'p bo'lib yashashi natijasida har bir mahalla muayyan kasbiy hunar nomi bilan atalib kelingan. Bular misgarlik, to'qimachilik, po'stindo'zlik, yurmado'zlik, pichoqchilik, zargarlik, ko'nchilar, mahsigarlar, do'ppido'zlik, tandirchilar, va o'nlab boshqa turdagi hunar nomlarini misol qilish mumkin.

Boboq alonimiz sohibqiron Amir Temur haqida ma'lumotlarga ega bo'lganimizda fikr yuritgan edikki, bu ulug' zot chet el yurishlaridan keyin Samarqandga 150000 dan ziyod turli kasb egalari va hunarmandlarni olib kelib ular uchun shaharlarda va ayrim qishloklarda hunarmandlar mahallarini tashkil qilgan ekanlar. Bunday harakat va o'z oqni ko'ra-bilish albatta Movaraunnahrning moddiy-madaniy taraqqiyotini yanada yuksaltirishga haratilgan reja bo'lgan. Bunday an'ana hozirgi kunimizda ham davom etib yangidan-yangi kasb-hunar bilimgozlari faoliyat ko'rsatib o'z samarasini bermoqda .

1.2. Xalq amaliy san'ati turlari.

Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarida nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dongi ketgan.

Naqqoshlik san'ati

O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda otobobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda.

“Naqsh” arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildiradi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa shakllarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir.

Islom talablariga buysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yuqolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi.

Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, an'analarning davomiyligini kuo'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini urganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'gilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqsh san'ati hozirgacha saklanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda Xalq ustalarining atrof muhitga harashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar o'yini musiqadagi ohang singari, qo'shik va ertak kabi "Xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan" iborat bo'ladi.

Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi.

O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador arakilarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgan novdalar, shohlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islami va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko'proq inter'perlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda naqshdan me'morchilikda, uy jihozlari, sovg'alar, mayda yog'och o'yinchoqlar, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni bezashda foydalaniladi.

Badiiy naqqoshlik san'ati hozirgi kunda keng tus olmoq da. Matbuot, radio, televidenie, kino orqali kishilar ana shu san'at namunalari va uning xalq ustalari bilan tanishmoqdalar. Bu san'atkorlar orasida O.Qosimjonov, E.Raupov, A.Boltayev, S.Norko'z iyev, A.Azimov, A.Isayev, B.Abdullayev, T.To'xtaxo'jaev, J.Hakimov, T.Ahmedov, K.Karimov va boshqalar bor. Ularning va ulardan ta'lim olgan shogirdlarning ishlarini Toshkentdagi amaliy san'at mo'z eyida, ko'rgazma zallarida, badiiy salonlarda, Shuning dek, turar-joy va jamoat binolarida, masalan, Toshkent Davlat tsirki, Toshkent temir yo'l voq zali fayesi, metro stantsiyalari, mehmonhonalar, kafelar, restoranlar, choyhonalar, klublar, zavod va fabrikalarning vestibyullari, dam olish xonalarida ko'rish mumkin. Hozirgi vaqtda maktablarda va maktabdan tashhari muassasalarda to'garaklar tarmog'ini iloji boricha kengaytirish vazifasi ko'yilmoqda.

Xalq naqqoshlik san'atini o'rganish o'quvchilarda badiiy didni, mehnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim hamda malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va o'stirishga yordam beradi.

Kandakorlik san'ati.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. Kandakorlik deganda metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoq i bo'rtik qilib naqsh ishlash tushuniladi. Savdo-sotiqda qadimdan kandakorlik buyumlariga talab katta bo'lgan (Kandakor. XIX asr). Bu asarlar ramziy ifodalarning yangi uslublari hamda qoyalarini tarqatish manbai bo'lib xizmat qilgan. Mahalliy san'at asarlari qo'shni mamlakatlar san'atining eng yaxshi yutuqlari bilan boyib borgan. Qadimda buyum yasash urf bo'lib qolgan. Mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har hil buyumlar yasaganlar. Qadimgi va ilk o'rta asr kandakorligi asosan hallangan kumush buyumlarda o'z ifodasini topdi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. "Kandakorlik" deganda metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoq i bo'rttirib naqsh ishlash tushuniladi. O'zbekiston hududida joylashgan O'rta Osiyo shaharlarida metallardan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarishi qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at turi bo'lib, bu san'at o'zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyingi o'rinda turadi. Qadimda buyum yasash urf-odat tusiga kirib qolgan. Mahalliy ustalar oltin, kumush, temir, mis va boshqa metallardan jozibali buyumlar yasaganlar. Misgarlar tomonidan yasalgan antiqa oftoba, choynak, piyola, shamdon, chilimdon va hoq azolar kandakor ustalar tomonidan chiroyli naqshlar bilan pardozlagan.

Oldin ustalar faqat mis barkashlarda naqsh bajargan bo'lsalar, endilikda ular sirg'alar, dastponalar, o'z uk,soch bandaklari, tufdon, mis tovoqchalarda kandakorlik ishlprini bajaradilar. Ish tehnikasida lalichalarni va ayrim kandakorlik mahsulotlariga qayta ishlov berish va qalayi yurgizib (ohartirib) ishlov berish yo'lga qo'yilmoqda. Kandakorlik mahsulotlariga yangiliklar kiritildi. Ish uslubiyoti yanada boyib ish sifati ham yuksalishga erishildi.

Hozirgi paytda ishlab kelayotgan yosh usta kandakorlarning ishlari bilan tanishsangiz kishi hayratda qolasiz. Shunday yosh ustalardan biri Jo'rabek Sidiqov. Jo'rabekning ishlari hajmiga nisbatan katta bo'lsa ham, ishlash uslubi va naqsh

kompozistiyasi o'ziga hosligi bilan ajralib turadi. Usto Jo'rabek Buhero kandakorlik maktabiga hos gul naqshlaridan foydalanib juda ajoyib kompozistiyalar to'z adi. Bu kompozistiyasida: zeb, zebcha gandumi, zanjira, zebish, muqja, shabarg, islimi, islimi bodai, islimi majnuni bodom, islimi gul, madohiya, madohili chaman va hoq azo to'rt yo'z dan ortiq gullar mavjud.

Kandakorlik hunari, bu shunchaki ermak emas, balki u juda nozik va murakkab hamda qadimiy hunardir. Bu san'atning umri asrlardan-asrlarga ulanib kelingan. Chinakam san'at ustasi bo'lgan insongina ana shunday noyob asarlar yaratishi mumkin.

Kulolchilik san'ati.

O'zbek kulolchiligi o'z oq tarixga ajoyib an'analarga shakl mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega sopol buyumlari soda bo'lsada uning ko'rinishi qismlarning aniqligi mutanosibligi saqlanishi, naqshlarning badiiy joylashishi shakli va mazmuni birligi uyg'unligi o'zbek kulolchiligini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik loydan, piyola, kosa, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo'lib u o'z oq tarihgaga ega.

Maxsus tuproqni o'tga qizdirganda toshsimon bo'lib qotishini undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idish -tovoqlar yasab gulxanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar.

Kulolchilik charxi milloddan avvalgi uch ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish- tovoq larni mahsus uchokda humdonlarga pishirganlar. Ilk feodal davri kulolchilik tugrisida gapiradigan bo'lsak, kuldorlik tizimining inqirozi: antik davrdagi kudratli davlatlarning emirilishi va shimoliy sharkdan kuchmanchi halklarning bostirib kelishi (4-5 asr) umummadaniyatini inqirozga yo'z tutdirdi. Ammo 5 asrdan boshlab ilk feodal munosabatlarini yo'z aga kelishi yangi madaniyatni belgilab berdi.

Xalqning ijod tafakkuri me'morlikda va naqshin bezak san'atda o'z tajassumini tordi. Aynan shu davrda kulolchilik san'ati ham yuksaklikka buy cho'z di. IX-XII asrlar ilk feodal savdo hunarmandlar shaharlar madaniyatining gullagan vaktidir. Bu davrda barcha san'at va badiiy hunarmandchilik sohalarida yuksak natijalar egallaydi.

Bu davrda loydan pishirilib tayyorlangan haykaltaroshlik keng rivojlanadi. Shuning ta'sirida bo'lsa kerak kulolchilikda uning mativlari o'z aksini topadi. Bunga Termizdan topilgan va dionisiy udumi bilan boglik kishilar burtma tasviri tushurilgan idish yorqin misol bulla oladi. Bino saqlashga muljallangan bunday idishlarga ba'zi hollarda qush masalan , o'rdak shaklidagi berilgan O'rdak shakli berilgan idishlar 19 asrga qadar bizga ishlanib kelingan. Bu davr kulolchiligi uchun nafis ko'z achalarning dastasi palmetattsimon barg yoq i biror hayvon ,aksariyat hollarda sher, ba'zida esa ot, kuy basharasi tarzida bajarilishi juda karakterlidir. Bunday bezakli ko'z achalar qadimiy Xorazm va Termiz, Samarqand, Toshkentning qadimiy shaharlaridan ko'plab topilgan. Kishini me'moriy obidada qo'llash Temur va temuriylar davrida ommaviy tus oldi. Bu holad olimlar tomonidan Hitoydan ko'plab shu davrda olib kelingan chini idishlar ta'sirida yo'z aga kelganini kayd kilishadi . Hitoy manfaatdorlariga mahsus urta osiyo bozorlarida muljallab chini mahsulotlar ishlab chiharilgan .

Samarqanda ustalar chini ishlab chikarishga urinishgan. Garchi bu urinishlar natijasiz bo'lsada, kulolchilikda ajoyib namunalarni yaratishiga olib kelgan. Temuriylar davri kulolchiligi Afrosiyob kulolchiligidan o'simlik va hayvonot olami tasvirini hayotiyroq va ishonchliroq talqini bilan ajralib turadi.

Miniatyura san'ati.

O'zbek xalqining eng nafis ijod turlaridan biridir. Tarixiy manbalarga ko'ra, surat solingan lakli qutichalar XVI asrda Buhoroda yasalgan ekan. Bu davrdagi lakli miniatyura namunalari bizgacha yetib kelmagan, hunarmandchilikning bu turiga hos bo'lgan k o'pgina ishlab chiharish jarayonlari esa unutilib ketgan. 1960 yillarda O'zbekistonning bir qator musavvirlari va xalq ustalari ushbu ajoyib san'at turini qayta tiklashga bel bog'ladilar. Ular orasida taniqli o'zbek musavviri

Chingiz Ahmarov va uning shogirdlari Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov hamda osha paytda yosh, navqiron san'atkorlar Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abduvosit Qambarov, Hayrat Kamolov, Munira Sotiboldieva va boshqalar bor edi. Ijodiy ustaxona tashkil etilib, unga o'z asarlarida Sharq miniatyurasining ko'p asrlik an'analarini izchillik bilan rivojlantirib kelayotgan musavvir Chingiz Ahmarov raqbarlik qildi. Mutahassislarning aniqlashicha, Sharqdagi tosh qog'ozdan ishlangan buyumlarga naqsh solish usuli Fedoskino, Paleh, Mstera, Holuy markazlariga mansub lakli miniatyura san'atiga o'xshab ketar ekan. Sanamnavislik usullarini meros qilib olgan rus miniatyura ustalari qo'llaydigan badiiy ifodalash vositalarining negizi sifatidagi jo'shqin rangtasvir usuli ko'p jihatdan Sharqning O'rta asrlardagi miniatyurachilari tajribasini eslatadi. Lakli miniatyura san'atining butun jahonga mashhur asosiy markazlaridan biri Paleh bilan tuzilgan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi shartnomaga binoan, 1982 yilda O'zbekiston tajriba ustaxonasi musavvirlaridan iborat ijodiy guruh ushbu shaharga yo'llandi. Ularni tosh qog'ozdan (pape-mashe) yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, tuxumning sariqi asosida kukunsifat pigmentlardan bo'yoqlarning kerakli tarkibini olish, mahsulotlarni ishlashdagi issiqlik rejimi, yupqa zarvaraqlardan foydalanish, mahsus mo'yqalamlarni tayyorlash usuli bilan tanishtirishdi. Paleh naqshlari bilan tanishish O'zbekistonlik ustalarni O'rta Sharq miniatyurasining mumtoz namunalariga murojaat etishga undadi. Miniatyura rangtasviri tamoyillarining an'anaviy lak bilan naqsh solish san'atiga kirib kelishi, O'zbekiston musavvirlarining ijodiy amaliyotida san'atning yangi turi-lakli miniatyuraning paydo bo'lishiga asos boldi. Lakli miniatyura san'atining shakllanish jarayoni murakkab kechdi. O'tgan 20 yil mobaynida ijodning ushbu turi rivojida ikkita tamoyil ayon bo'ldi. Birinchisi — miniatyura rangtasviri badiiy merosiga ijodiy yondoshgan qolda va naqshin syujetda zamonaviy voqelikni aks ettirish bo'lsa, ikkinchisi — mumtoz miniatyuraning badiiy qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilishdan iborat.

Zardo'zlik san'ati.

Zardo'zlik san'ati o'zining o'z oq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha SHarq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha erda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach, zar, ipak yoq i jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuqrat qozongan. Zardo'zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topib, zardo'zi kiyim-kechaklar faqat imperator a'yonlari va aslzodalarigagina mansub bo'lgan.

Sosoniylar davrida Eron podshoqining saroyida ham zardo'zlik san'ati rivoj topgan deyishga asos bor, chunki bu mamlakat Vizantiya bilan muntazam madaniy va siyosiy hamkorlik qilgan. qozirgi Eronda HV-HVII asrlardagi zardo'zlik namunalaridan anchagina yodgorlik saqlanib qolganligi badiiy an'analar o'z oq yillar davomida rivojlanganligidan dalolat beradi.

Zardo'zlik - hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do'zi (tikmoq) so'zini anglatadi.

Zardo'zlikni bilish uchun asosan uch hunarni yahshi bilish kerak, birinchisi - rasm solish va naqsh chizishni, ikkinchisi - gul kesishni, ya'ni gulbur bo'lishni, uchinchisi - kesilgan gulga zarni tika bilishi kerak. Agar zardo'zlar bularni birortasini bilmasa uchalasidan bittasiga muqtoj bo'lishi kerak bo'ladi. Shuning uchun uchala kasbni chuqur o'rganishga to'qri keladi.

Zardo'z quyidagi tartibda ishlaydi. Usta erda, ko'rpacha ustiga o'tirib korcho'pda tikadi. Korcho'p oddiy yog'och ramkadir. Bu ramkaga mato tortilib chiqiladi hamda bu mato ustiga Sidirg'a ko'k, to'q qizil yoq i binafsha rangdagi bahmal qadab chiqiladi. Usta zardo'z ikkita o'ymoq angushvona yordamida tikib, o'ng qo'lining barmoqiga tikuvchilar ishlaydigan charmdan tikilgan o'ymoq kiyib tikadi. hammamizga ayonki zardo'zlik ikki qo'l bilan tiqilib, zardo'zlik ignasi kalta va nozik bo'lishi lozim bo'ladi. Tilla rangli zarni qizil hamda sariq iplar bilan kumush zarni oq ip bilan tikiladi.

Yog'och o'ymakorligi.

Yog'och o'ymakorligida yog'ochni yasalayotgan buyumga mos keladigan sifatlisini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. o'tmishda o'ymakor-ustalar bunga alohida ahamiyat berib, yillar davomida tayyorgarlik qilib borganlar. Darahtlarni kesib hodasining ikki tomoniga, yani kesilgan joyiga qog''oz yopishtirib mahsus tayyorlangan suv havzalariga tashlab, bir necha yil saqlaganlar. So'ng uni olib quritishda quyosh nuri tushmaydigan, salqin joyda quritgan. Bu yog'och hom-ashyosini yorilishdan saqlash bilan bir qatorda namga, har hil chirishlarga bo'lgan chidamliligini oshirgan.

Yog'och hom-ashyosining tabiiy guli buyumga o'zgacha bir tarovat berib turadi. Ota-bobolarimiz buni etibordan chetda qoldirmaganlar. quritilgan yog'och ni buq'doy, arpa yoq i sholi yanchilganda poyalarining maydalanishidan hosil bo'lgan somonidan foydalanib, tahtani unga ko'mib qo'yganlar. Somon o'zidan issiqlik chiharib tahta yo'z asini qizartirib tabiiy gul hosil qilgan.

Buyum yasashda u qayerlarda va qay maqsadda foydalanishiga ham etibor haratish lozim. Kerakli o'lchamda tahtachalar arralab tayyorlangach, jilvir qog''oz da silliqlab olinadi. Ularni biriktirishda esa yashirin birikmani qo'llagan holda biriktirishimiz mumkin. Biriktirib olganimizdan so'ng burchaklarini, bir-biriga ulangan joylarini ko'zdan kechirib, yana bir marotaba jilvirlab chiqiladi.

Naqsh kompozitsiyasi to'z ishdan oldin, yasalgan buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan, turli burchakli va to'g'ri chizg'ichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (stirkul) va boshqa bir qator asboblari kerak bo'ladi. Bunda kompozitsiya to'z uvchining dunyoharashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatliligi va didining yuqori darajadiligiga bog'liq .

Kashtachilik san'ati.

Kashta tikish san'atining ko'p asrlik tarixi mavjud. Kashta tikish san'ati avloddan-avlodga o'tib, hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Kashta asosan uy-ro'zqor buyumlarini-sochiqlar, to'r hoshiya, dasturhonlar, bayram va kundalik

kiyimlar va boshqalarni bezashda ishlatiladi. Kashtalar zar va kumush ishlarda, zig'ir tolali iplarda, muline iplarda, ipak va oddiy iplarda tikiladi.

Kashta tikishni boshlashdan oldin gazlamani asos va arqoq iplari bo'ylab tekislab, ustiga bezak qo'yiladi va gazlamaga ko'chiriladi. So'ng gazlama keragicha tortiladi. Gazlama chetlarini tekislab olish uchun, gazlamaning chetidagi ipini suqirib olinadida, uning izi bo'ylab ortiqcha gazlama qirqib tashlanadi. Buyumning bo'yi va eni ham shunday belgilanadi.

Ko'pincha dasturhon yoq i salfetkaning bukilgan chetiga chiziq shaklidagi bezak tikiladi. Ana shunday chiziqlar bilan buyum yo'z asini kvadratlariga, to'rtburchaklarga bo'lib, ularga kashtaning asosiy bezagini tiksa ham bo'ladi. Kashta gulni gazlamaga tushirishdan oldin, chiziqlar o'rnini belgilab, bittadan ip suqirib olinadi. Natijada buyumning yo'z asi kvadratlariga yoq i to'g'ri burchaklarga bo'linadi. Shundan keyin ip suqirib hosil qilingan chiziqlar orasiga asosiy kashta bezagini joylashtirib, uni gazlama ustiga ko'chiriladi. Kashta tikib bo'lingandan keyin bu izlar ustiga biror chok yuritib tikiladi.

Agar kashta bezagi geometrik, gazlamaning to'qilgan iplari aniq ko'rinib turgan bo'lsa, gazlama ipini sanash yo'li bilan tikish mumkin. Gazlama strukturasiga boqliq bo'lmagan (vladimircha chok, rangli tekis chok va h.k.larni) tikishda bezakni gazlama ustiga ko'chirish lozim bo'ladi.

Kiyim-kechaklar (blo'z ka, ko'ylaklar) ga ularni bichishdan oldin yoq i ularning bichilgan bo'laklariga kashtani tikib olish eng qulaydir. Bichishdan oldin, tikishda kiyim bo'laklarining konturlari andaza bo'yicha belgilab chiqiladi, keyin bezak ko'chiriladi va tikilaveradi.

Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyim-larga, ro'zqor buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, ziqir, jun, ipak, sun'iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metall pulakcha, qimmatbaqo tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos operatsiyani bajaradi. Kashtachilikda

ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to`qnaqich, angishvona qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi, qo`lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda o`rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi esa matoga gul tasviri konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq o`rim iplari kesishtirib tikilgan polotno yoq i bo`z shaklida to`qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O`zbekistonda keng tarqalgan. Kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. O`zbek kashtachiligida yo`rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo`zi, chamak, chipta xayol, baxya choklar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi. Chunonchi Shahrisabzda yo`rma, kandaxayol, Iroqi, Toshkentda ko`proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqand yo`rma choki bilan tikiladi.

II. Bob. Amaliy san'atda sovg'a buyumlar tayyorlash jarayoning borishi.

2.1.Naqqoshlikda sovg'a buyumlar tayyorlash.

Xalq amaliy bezak san'ati o'zining qadimiy va jozibadorligi bilan kishilar qalbidan joy olgan. Ayniqsa naqqoshlik san'ati an'analarga nihoyatda boy. Naqqosh ustalarning ish uslublari rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turadi. Naqqosh o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan, bejirim shakllardan, material fakturasidan moqirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalikka erishadi.

Insoniyat o'zi uchun zarur qisoblagan barcha kiyim-kechak, ro'zqor va uy-ro'zqor anjomlarini doimo takomillashtirib, bezatib keladi. Shu bilan birga, har qanday badiiy bezatilgan buyum va jiqozlarning o'z bezatilish usullari, materiallarga ishlov berishdagi o'ziga hos bosqichlari mavjud. Bunday bezak va ishlov berib yasatilgan buyumlar kishilarga estetik zavq baqishlab, qayotga bo'lgan munabbatlarini yanada oshiradi.

Ustalarimiz tomonidan sayqal topayotgan zargarlik, pichoqchilik, kashtachilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik buyumlari nafaqat bugunimiz, balki kelajak avlodlarimizning ham boyliklari, ma'naviy qadriyatlari hisoblanadi. An'anaviy o'zbek naqqoshligida nafaqat binolarni bezash, balki yog'ochdan yasalgan buyumlarga ishlov berish ham yaxshi rivojlangan. Bularga mebellar, sovg'abob buyumlar, musiqa asboblari va uy-ro'zqor buyumlari ham kiradi. Shuning dek, quticha, hontaxta, kursi, stol-stullar, to'z don, non idishi, sabzi tahta, qoshiq, lagan, sandiq va hoq azolar shular jumlasidandir.

Uy-ro'zqor buyumlari va jiqozlariga badiiy ishlov berish asosan ularga naqsh namunalarini tushirish, pardozlash kishidan anchagina malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Zero, yog'och buyumlarini naqshlashda xalq ustalari erishgan yutuqlar beniqoya kattadir. Ularning ijod namunalari respublikamiz va chet-ellarda turli mo'z ey, ko'rgazma zallarida, badiiy salonlarda keng namoyish etilib kelinmoqda. Ularning barchasi qaqli ravishda yuqori baqolar olmoqda. Naqsh san'atida yog'och buyumlariga o'ta moqirlik bilan jilo bergan ustalar O.Qosimjonov, Yo.Raupov, J.Hakimov, T.To'htaho'jaevlardir. Shu jumladan zamonaviy naqqosh ustalarning ham ijodiy ishlari taqsinga loyiq.

Ulardan Maqmur To'raev, Anvar Ilqomov, Abdulla Akbarov, hamidulla Isoqjonov va boshqalarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

Naqshlanadigan buyumlarning shakl-shamoyilini, foydalanishdagi qulayliklarini qisobga olgan qolda boshlanqich qoralama eskizlari ishlanadi. qosil bo'lgan aniq o'lchamlardagi qoralamalar asosida buyum yasaliib, naqsh kompozitsiyalari to'z iladi. Buyumlarni naqshlash jarayonida bir necha amaliy bosqichlar bajarilishi lozim:

- Tayyor bo'lgan (yasalgan) yog'och buyumlariga jilvirlash orqali ishlov berish.
- Yo'z a sirtlarini bo'r va elim aralashmasi (shpaklyovka) yordamida silliqlab chiqish.
- Naqsh kompozitsiyasini buyum satqiga ulgi yordamida tushurish.
- Naqshni ranglash bosqichlarini ketma-ket bajarish.
- Pardozlash va laklash.

Naqshlanishi kerak bo'lgan buyumning rang koloriti aniqlangach, ranglash bosqichlari quyidagi tartibda bajariladi:

- Naqsh zaminini ranglash.
- Naqshning gullari va barglarini turlash.
- Naqshning bandlariga, shakllariga rang berish.
- Siyoq qalam tortish.
- Naqshning gullari va barglariga tarqil tortish.
- Naqshning oq bandlari va obisini tortish.

Yog'och buyumlarini naqshlashda mola, obi, siyoq qalam deb ataluvchi turli nomerlardagi yumshoq mo'yqalamlardan foydalaniladi. Pardozlash usullari naqshning rang koloritiga asosan qora, qizil, to'q ko'k, to'q yashil, jigar rang kabi to'qroq tusdagi bo'yoqlar yordamida bajariladi.

Yog'och biyumlarini laklaganda rangsiz smola, domar va spirtli laklardan foydalaniladi. Laklar asosan kunjut yoq va kanifoldan tayyorlangan.

Toshkent naqqoshlaridan Olimjon qosimjonovning aytishiga ko'ra, fabrika laki ishlab chiharilgunga qadar, ustalar egar moyi" deb atalgan lakni ishlatganlar. Bu lakning aralashmasi elim (toq o'simliklarining suvi), kunjut moyi va kanifol

bo'lgan. "Egar moyi" bo'yoqlarning rang tuslarini yanada yorqinlashtirgan va bezatiladigan yo'z ani darz ketishidan, emirilishidan saqlagan.

Yog'och buyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak bo'ladi. Jilvir qog'oz, shpatel, bo'r, duradgorlik elimi, pista ko'mir, doq a, hitoy qog'ozi, igna, alif, lak, tilla va kumushdan tayyorlangan qallar, 1- 20 nomerli mo'yqalamlar va boshqalar.

Naqsh ishlash uchun qayin, qora qayin, haraqay, noq , yonqoq, DSP va boshqa yog'ochlar tanlanadi. Yog'och buyumlarini naqshlash uchun yana shpaklyovka, hoq a va ahta tayyorlanadi.

Naqqoshlikda ishlatiladigan bo'yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo'yoq, guash, akvarel, emulsiyali bo'yoq, mineral bo'yoq, moy bo'yoq, tempera bo'yoqlari. Yog'och buyumlarini naqshlashda eng ko'p qo'llaniladigan bo'yoq – guashdir. Rang tuslarini tayyorlashda oq bo'yoqni boshqa bo'yoqlar bilan aralashtirib, kerakli rangni topa bilish muqim ahamiyatga egadir. Shuning dek, guash bo'yoqlari zarur quyuqlikda va nafis tiniqlikda tayyorlanishi lozim. Yog'och buyumlariga badiiy ishlov berishda avval buyumni jilvir qog'ozi bilan jilvirlab chiqish kerak bo'ladi. So'ngra, unga alif moyi yog'i duradgorlik elimi surtiladi. Buyum yo'z asini yanada tekislash, silliqlash maqsadida mahsus qoplama (shpaklyovka) ham surtiladi. U quriganidan so'ng, mayda donali jilvir qog'ozi bilan buyum sirti yana bir bor silliqlanadi. Buyumga ahta va ulgi yordamida oldindan tayyorlangan naqsh kompozitsiyasi tushiriladi. Buyum satqidagi naqshlar ranglanib, pardoz beriladi. So'ng u quriganidan keyin, rangsiz lak bilan qoplab chiqiladi.

Shpaklyovka naqshlanadigan sirlarga silliqlab, tekislash uchun qo'llaniladigan mahsus quyuq massa. U bo'r (mel), yog'och elimi, alif moyi, suv, sovun kabi moddalarni qo'shgan qolda aralashtirib tayyorlanadi. qoplama (shpaklyovka) lar tarkibida qo'llanilgan moddalariga ko'ra elimli va moyli deb yuritiladi. Moyli qoplama tarkibiga alif qo'shilganligi sababli ana shunday ataladi. Undan moybo'yoqlar ishlov beriladigan sirlarni silliqlashda foydalaniladi. Elimli

shpaklyovka devor satqlarini pardozlash uchun mo'ljallangan bo'lib, uning ustidan suv bo'yoqlari surtiladi.

Hoq a tayyorlash: surup mato yoq i doq aga chala yongan yog'och (pista) kukuni ezib solinadi va u haltacha tugib qo'yiladi.

Ahta – ya'ni ulgini tayyorlash quyidagicha bajariladi: shaffof (kalka) qog'oz tanlangan naqsh kompozitsiyasining bo'laklariga mos ravishda buklab chiqiladi va uning faqat bir bo'lagi chizib olinadi. So'ng, buklangan qog'oz qavatlari igna bilan yalpisiga teshib chiqiladi. Buklangan qog'oz qati yozilganidan so'ng esa yahlit naqsh kompozitsiyasining qosil bo'lganligini ko'ramiz. Endi uni buyumning sirtiga qo'yib, hoq a yordamida naqsh tasvirini tushurish mumkin.

2.2. Yog'och o'ymakorligida sovg'a buyumlar tayyorlash

Yog'och o'ymakorligida yog'ochni yasalayotgan buyumga mos keladigan sifatlisini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'tmishda o'ymakor-ustalar bunga alohida ahamiyat berib, yillar davomida tayyorgarlik qilib borganlar. Darahtlarni kesib xodasining ikki tomoniga, yani kesilgan joyiga qog''oz yopishtirib mahsus tayyorlangan suv havzalariga tashlab, bir necha yil saqlaganlar. So'ng uni olib quritishda quyosh nuri tushmaydigan, salqin joyda quritgan. Bu yog'och hom-ashyosini yorilishdan saqlash bilan bir qatorda namga, har hil chirishlarga bo'lgan chidamliligini oshirgan.

Buyum yasashda u qayerlarda va qay maqsadda foydalanishiga ham etibor qaratish lozim. Biz quticha yasash ustida to'htalib o'taylik. Quticha yasash uchun eng qulay yog'och hom-ashyosi qora qayin, yong''oq va zarang materiallari deb aytishimiz mumkin. uning o'lchamini esa tahminan eni 10 sm, bo'yi 20 sm, balandligi 6 sm qilib olamiz.

Kerakli o'lchamda tahtachalar arralab tayyorlangach, jilvir qog''oz da silliq lab olinadi. Ularni biriktirishda esa yashirin birikmani qo'llagan holda biriktirishimiz mumkin. Biriktirib olganimizdan so'ng burchaklarini, bir-biriga ulangan joylarini ko'zdan kechirib, yana bir marotaba jilvirlab chiqiladi.

Naqsh kompozitsiyasi to'z ishdan oldin, yasalgan buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan, turli burchakli va to'g'ri chizg'ichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (stirkul) va boshqa bir qator asboblari kerak bo'ladi.

Buyum o'lchami aniq o'lchab olingandan so'ng, buyum uchun qanday naqsh kompozitsiyasi to'z ilsa buyum yanada ko'rkamroq, go'zal va jozibador chiqishligini ko'z oldiga keltirgan holda fikr yuritish lozim. Bunda kompozitsiya to'z uvchining dunyoharashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatliligi va didining yuqori darajadiligiga bog'liq. Demak, bir to'htamga kelgach Xitoy qog''oziga naqsh kompozitsiyasi chiziladi.

Kompozitsiya tuzishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq bo'ladi, yani buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini etiborga olish alohida ahamiyatga ega. Yumshoq materialdan olingan bo'lsa yirikroq, qattiq materialdan olingan bo'lsa maydaroq, murakkabroq naqsh kompozitsiyalaridan foydalanish mumkin.

Ko'z ilgan naqsh kompozitsiyasini kalka (hitoy qog'oz i yoq i shaffof qog'oz) ga ko'chirib ahta (ulgi) tayyorlanadi. Ahta tayyorlash uchun buyumning o'yma bajariladigan yo'z asiga mo'ljallab yupqa shaffof qog'oz olinadi. Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o'qi bo'ylab shaffof qog'ozni ikkiga, to'rtga va hokazolarga buklanadi. Buklangan shaffof qog'oz ning bir qismiga naqsh kompozitsiyasi chiziladi. Naqsh chizilgan shaffof qog'oz ni yumshoq yostiq ustiga qo'yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshning yirik-maydalagiga qarab igna tanlanadi va igna teshigi oralig'i naqshning mayda yog'i yirikligiga qarab teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa tayyor bo'lgandan so'ng, shaffof qog'oz yozib yuboriladi va bir butun kompozitsiyasini ko'rish mumkin. Tayyor bo'lgan ahtani o'yma yo'z asiga qo'yib ustidan hoq a urib yoq i bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh nushasi buyum yo'z asiga ko'chiriladi.

Ko'chirilgan naqsh nushasini o'yishda yog'och o'ymakorligida turli asboblari ishlatilib, ularning har biri o'ziga hos ishlarni bajaradi. Yog'och o'ymakorligida asboblari ikki turga bo'linadi, yani naqshni o'yish uchun "o'yma qalamlar" va ikkinchisi "naqsh qalamlar"dir.

Iskanalar shakli va bajaradigan ishiga qarab ularning bir qancha turlari mavjud. Masalan, to'g'ri iskana, kovza iskana, nova iskana, zamin iskana, baliq sirti iskana, morpech iskana, chekma iskana, kurakcha iskana, chekma qalam va boshqalar kiradi. Odatda yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan iskanalarni mahsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoq i o'ymakor ustalarning o'zlari tayyorlaganlar. o'yish bosqichlari esa biz avvalgi mashq'ulotlarimizda takidlab, amalda ko'rganimiz kabi ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Yog'och o'ymakorligida umuman 6 ta pardoz turi mavjud bo'lib, ular qirma, chizma, pah, choka, lo'la va tabaqa pardoz turlariga bo'linadi. Shulardan 4 hili, yani pah, choka, lo'la va tabaqa pardozlari relefga pardoz berishda ishlatiladi. Ushbu pardoz turlari 2 ga bo'linib oddiy (pah va choka) va murakkab (lo'la va tabaqa) pardoz turlarini o'z ichiga oladi.

Odatda to'z ilgan naqsh kompozitsiyasining harakteriga mos ravishda pardoz turi tanlanadi. Pardoz turini tanlashda yoruq' va soya tushishini ham hisobga olishni unutmaslik kerak. Masalan:

Pah pardoz - yog'och o'ymakorligida o'yma naqsh relefini bir tomonga qiyalab kesiladigan oddiy pardoz turidir. Bu pardozni yoyma pardoz deb ham yuritiladi. Ustalar pah pardozi "zanjira" ni o'yish natijasida yo'z aga kelgan deya tahmin qilishadi. Pah pardozi choka pardoz, lo'la Mpardoz va tabaqa pardozdan ancha oson bo'lib, pah pardozi berilgan o'ymadagi nur va soya ancha yumshab mayin ko'rinishga ega bo'ladi.

Choka pardoz - naqsh bandining qiyaligini o'rtaga olib o'z unasiga o'yilgan pardoz turi. Bu pardozni yorma pardoz deb ham ataydilar. qo'kon yog'och o'ymakorlik maktabi ustalari bu pardoz turidan keng foydalanadilar. Choka pardozi o'ymakor ustadan mahorat va istedod talab qiladi. Bu pardoz turi bilan pardozlangan naqsh o'zgacha bir husn kasb etadi.

Lo'la pardoz - o'yma relefni yarim yumalok shaklda ishlov berilgan murakkab pardoz turi. Bu pardoz turi nafaqat yog'och o'ymakorligida, balki ganch va tosh o'ymakorligida ham ishlatiladi. Lo'la pardoz turi barcha pardoz turlari ichida eng ohiri qo'llanila boshlangan. Lo'la pardozi bilan pardozlangan o'ymaning chuqurligi kamayadi va naqsh mayin ko'rinishga ega bo'ladi.

Tabaqa pardoz - XIX asrda Buxoro ustalari tomonidan yaratilgan bo'lib, o'yilayotgan barg, gul ikki yoq i uch qatlam qilib o'yiladigan pardoz turi. Tabaqa arabcha qatlam, daraja degan manoni bildiradi. Tabaqa pardozi bircha pardoz turlari ichida eng murakkabi bo'lib, o'ymakor ustadan professional mahorati talb etiladi.

Yog'och o'ymakorligida o'ymaning zamini chakichlanganda naqsh kompozitsiyasini mayin, jozibador, shu bilan birga o'yma relefini bo'rttirib, yaqqol namoyon qiladi, pardozni yanada go'zal ko'rinishiga, naqshlar hosil qiladigan yoruq'-soya o'yini o'ymani emosional tomonini belgilovchi vosita bo'lib hizmat qiladi.

Naqsh zaminini chakichlashda ishlatiladigan chekma qalam va chekma iskanalarni bir-biridan farqlab olmoq zarur. Chunki, har ikkisinin ham o'z vazifasi va ishlatiladigan o'rni bor. Chekma iskana uy-ro'zq'or buyumlari, sovq'a buyumlarini badiiy bezashda ishlatilsa, chekma qalamlar ko'proq monumental o'ymakorlikda, yani eshik, darvoza, ustun va hakkozolarni chakichlashda qo'llaniladi. Chekma iskanalar bir tishli, uch tishli, besh tishli va hakkozo bo'lib, naqsh zaminini huddi patir yo'z asiga o'hshatib, chakichlab chiqsa, chekma qalam bir qatorli, ikki qatorli, uch qatorli bo'lib, har bir qatorida ikki, uch, to'rt, besh va hakkozo bo'rtma tishli bo'ladi va chekma qalamlar chekma iskanalardan farqli o'laroq yirik va kvadrat shakliga o'hshash iz qoldiradi.

Shunga alohida etibor berish joizki, har ikkisidan foydalanishda yog'och hom-ashyosining holatiga ahamiyat berish kerak. Chekma qalam yoq i iskana yog'och hom-ashyosiga nisbatan 45° qiyalikda ishlatish talab etiladi. Aks holda buyum sifatiga putur etkazadi. Yani, chekma qalam yoq i iskananing tishlari yog'och tolalariga nisbatan parallel holda ishlatilsa buyumga chuqurroq botishi va hatto buyum darz ketishi ham mumkin. Agarda 90° da foydalaniladigan bo'lsa, yog'och tolalarini titib yuboradi. Bu esa buyum sifatiga salbiy tasir ko'rsatadi.

Chekma qalam yoq i chekma iskanalardan foydalanishda o'yish jarayonidagi singari iskanani bo'shroq, bolg'ani esa mahkamroq ushlash kerak. Buyumni chakichlash davomida bolg'ani bir hil kuchlanishda urishga etibor haratish lozim. Buyumni chakichlash ustadan katta mahorat va qunt talab qiladi. Usta fikrni jamlab bolg'aning tushishiga, qator oralarining bir xilligiga alohida sinchkovlik bilan ahamiyat berib borish zarur. Yaratilayotgan san'at asari muhlislar ruhiyatini ko'taradi, kishiga zavq baq'ishlaydi, ko'ngliga shodlik olib kiradi. Shuning uchun har bir ishni bajarishda ushbu jihatlarga amal qilish muhim.

Yog'och o'ymakorligida qanchalik sifatli o'yma bajarilmasin, o'ymaga mos pardoz turi tanlanib alo darajada ishlov berilmasin, buyumni jozibadorligining 70-80 foizini so'nggi ishlov berilganlik darajasa tashkil qiladi. So'nggi ishlov berish deganda buyum o'yilib, zamini chakichlanib, o'ymaga mos pardoz berilgandan keyingi yumushlarni tushinmoq kerak. Yani, o'yma bajarilib bo'lingandan keyingi lok lash boskichi nazarda tutiladi.

O'yma yu'zasiga lok berishdan oldin o'yma yuzasini yaxshilab qum qog'oz da, yani jilvir qog'oz da jilvirlab chiqish zarur. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, jilvir qog'oz ning bir necha turlari mavjud. O'yma yuzasini mayin jilvir qog'oz bilan jilvirlangandan so'ng chang va gardlardan tozalanadi.

Shu o'rinda quyidagilarni takidlab o'tish joizki, yani turli yog'och o'ymakorlik maktablarida naqsh kompozitsiyasining to'z ilishi, o'yilishi va pardoz usullari kabi lok lash usullarida ham o'ziga hoslikka ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabi vakillari bazi hollarda monumental asarlarni yaratishda dastlab o'yma zamini va sirtiga bir tekisda alif moyi surtib chiqadilar, so'ngra lok lashlariga guvoh bo'lsak, Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi vakillari esa o'ymaning hamma zamini va releflarini bir maromda lok lab chiqadilar.

Lok sifatiga qarab 4 s, 6 s va 7 s markali bo'lib, yoq'li, spirtli va smolali lok larga bo'linadi. 4 s markali lok lar tusi quyuq ko'k choy yoq i pahta yog'iga o'xshash bo'lib, ishlatilganda bo'yoqlarning, yog'och materiallarining tabiiy rangini saqlab qoladi va rangini o'zgartirmaydi. 6 s va 7 s markali lok larning tusi qoramtir, rangi qora choyga o'hshash, hidi achchik bo'lib, ishlatilganda bo'yoqning va yog'och materiallarining tabiiy rangini saqlab qolmaydi, ularning rangini o'zgartirib sal qoramtir tus beradi.

Ayrim lok larda yuqorida aytilgan mahsus markalar qo'yilmaydi. Masalan, PF-283 lok ini olaylik. Ushbu lok Toshkent lok -moy ishlab chikarish korxonasida tayyorlangan bo'lib, rangsiz, xuddi 4 s markali lok tusiga o'xshash rangi toza, tiniq. Lok qanday markada bo'lishidan qat'iy nazar undan foydalanishdan avval

uni kichkina narsaga surtib amalda sinab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.
Shunda ishlatmoqchi bo'lgan lok imiz haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lamiz.

2.3. Kulolchilikda milliy o'yinchoqlar tayyorlash.

Azaldan xalq ustalari, kulollar ishlatadigan loy oddiy loydan farq qilib, bu loy xalqimiz tilida gil yog'i gilmoya deb ataladi. Bu loyning qayishqoqlikligi yerdagi loylarga haraganda ko'proq bo'ladi. Bunday loydan, ya'ni gilmoyadan xalq ustalari turli ko'z alar, kosa-tovoqlar va xar xil o'yinchoqlar yasaydilar.

Xalq ustalari, kulollar ilgarilari gilmoyani tayyorlash uchun yerning alohida qatlamlaridan chiqadigan loyni yillab izlashgan, uni daryolarni kirg'oqlaridan toza loylardan olishgan. Gilmoyaning qayishqoqliki qancha ko'p bo'lsa, u shuncha yopishqoq bo'ladi. Yopishqoq gilmoyaga foydalanishdan oldin toza sarg'ish yoq i qizil tuproq aralashtirib yaxshilab pishitishgan.

Xumdon ana shu loylardan yasalgan narsalarni pishirib oladigan tandir. Bugungi kunda xar xil xaroratda pishadigan loylarning turlari ko'p bulib, ularning umumiy nomi kerakmik loy yoq i kulolchilik loyi deyiladi. Ularning gilmoya, chinni loyi, shamot (yukori xaroratga chidamli loy), fayans (oq loy) va boshqa xil turlari mavjud.

O'yinchoqlar yasash uchun loyning qayishqoqligi yaxshi bo'lishi kerak, buning uchun loy tarkibida turli aralashmalar (masalan, temir kukunlari, alebastr, tosh va shunga uxshash jinslar) bulmasligi zarur, ular loy sifatini bo'zishga olib keladi. Toza loyni olish uchun kulolchilikda ishlatiladigan loyni, ya'ni gilmoyani olib maydalanadi, sungra plastmassa togoralarda ivitib kuyiladi, 1-2 kun utgandan keyin uni yaxshilab korishtiriladi, oq ibatda ivigan loy suv bilan korishib suyuq xolatga keladi. Keyin suyuq korishma mayda ko'z li elakdan so'z ib utkaziladi. So'z ilgan loyni ishlashga yaroqli xolatga keltirish uchun u kotiriladi. Bunda alibastr yoq i gipsdan yasalgan jomlardan foydalaniladi. Idish ichiga latta yoq i doq a tushaladi. Unga so'z ilgan loy kuyiladi. Alebastr yoq i gipsdan yasalgan jom loy tarkibidagi suvni o'z iga surib oladi, bu esa loyning tezroq qotishini ta'minlaydi. Loy bilan jomning urtasiga solingan latta yoq i doq a loyning gipsga qo'shilib ketishidan saqlaydi. Jomdagi loyni ishlash uchun yaroqli xolga kelishi kutiladi. Loyni qo'l bilan

ushlab ko'rib, ishlatish uchun yaroqli holga kelgan bo'lsa uni yaxshilab pishitib tayyorlanadi. Pishgan loy qo'lga yopishmaydi, uning tarkibidagi namlik qochmasligi uchun pishitilgan loyni bironta lattani namlab, unga o'rab qo'yiladi ivash u loyning o'z idan o'yinchoqlar yasaladi. Ilgarilari yasab kelingan o'yinchoqlarni Xalqimiz xona turidagi jovonlar yoq i mexroblarga terib kuyishgan. Bu esa xonaning ko'rkiga ko'rk ko'shgan. Yana har xil xayvonlar tasvirida xushtaklar yasali, bu xushtaklarni bolalar chalib o'ynashgan. Bu o'yinchoqlarga faqat xar xil suv bo'yoqlar berishgan xolos.

Shuni aytish kerakki, Xalq amaliy san'ati namunalarini, ya'ni g'oyat nafis va badiiy jihatdan qimmatli bo'lgan o'yinchoqlar yasash uchun loy tayyorlashning texnologik jarayonlarini bilish bilangina chegaralanib qolmaslik kerak. Turli xom ashyolardan yasalgan o'yinchoqlarning yasali va bezatili uslubini sinchiklab kuzatili ham samara beradi.

Yasaladigan o'yinchokning har tomonlama tasvirini qog'ozda yoq i plastilinda bir necha xil kurinishda ishlamoq zarur. Bunday izlanili bo'lajak o'yinchoqning xomakinusxani tayyorlash deyiladi. Bunda o'yinchoqyasovchining fikrlash qobiliyati badiiy jihatdan boyiydi, tasavvuri yanada rivojlanib borib, unda go'zal va nozik his-tuyg'ular paydo bo'lla boshlaydi.

Ijodiy izlanishlardan so'ng topilgan o'yinchoknususxasini endi kattaroq qilib yasash mumkin bo'ladi. Bunda yasaladigan o'yinchoqning haqiqiy o'lchami ko'zlangan maqsadga qarab tanlanadi. Masalan, bolalarga mo'ljallangan xushtak o'yinchoqning shakli kichik va biron hayvon shaklining takomillashgan ko'rinishida (masalan, qo'chqor yoq i qush shaklida) bo'lsa, bolalarda qiziqish uyg'otadi va o'ziga tortadi. Shuning uchun ham ijodiy izlanili jarayonida yasaladigan o'yinchoqlarning shakliga yaxshi e'tibor berili lozim. Chunki mazmun va shakl birligida mazmun yetakchi rol o'ynaydi.

Yasaladigan o'yinchoqlarda mazmun bilan shakl bir-biriga mos kelsa, bu o'yinchokhakikiy san'at asariga aylanishi hakida unutmaslik kerak.

Shu o'rinda loydan xushtak yasash texnologiyasini o'rganib chikamiz.

Yukorida aytilganidek, lattaga o'ralgan tayyor loydan hohishga ko'ra bir qism yoq i undan ko'proq olinadi. Uni taxtacha ustida zuvala qilinadi, so'ngra unga biror shakl, masalan, "qo'chqor" shakli berishga kirishiladi. Buning uchun "qo'chqor"ning boshi aylana shoxlari bilan birga yasaladi. Keyin esa tanasiga ishlov berilib, oyoq lari aloxida-aloxida emas, balki silindr shaklida umumiy bitta oyoqcha qilinadi. Bu oyoqchanning o'z unligi 1 yoq i 2 sm bulib, tananing urtasidan chikariladi. "Qo'chqor"ning dum tomoni biroz ingichka kundalang-yalpangroq yasalib, uning o'rtasiga belkurakcha shaklidagi yog'och asbob (bu asbobni yasash uchun qalamni belkurak shaklda yo'nsa xam bo'ladi) kiritiladi. Buning natijasida 2 sm chamasida teshikcha hosil bo'ladi. Shundan so'ng dumdan 1 sm beriroqdan qiya holatda tepadan -bel tomondan 'teshiladi. Oxirgi ish: dum tomondagi teshikning oxiridan "qo'chqor"ning ikki tarafidan teshikcha ochiladi. Qarabsizki, "qo'chqor" xushtakcha tayyor.

Xushtakda shaklning ustidan qiya uyilgan teshikdan shamolning qisilib chikishi sababli yoqimli ovoz chiqadi. Yon tomonlardan ochilgan teshiklar ovozga to'lqin beradi: bita teshik berkitilsa ingichka, ikkala teshik berkitilsa yo'g'on ovoz chiqadi.

Albatta, yasalgan o'yinchoqlarning ko'rkini dekorativ naqshlar yaxshi ochadi. Loyga yoq i loydan yasalgan bu o'yinchoqlarga naqshlarni uch uslubda bajarish: bo'rttirib naqsh yasash, loyga naqsh chizish va yog'ochdan naqshlar yasab, ularni loyga bosish mumkin. Naqsh solish uslubi xam tayyorlanayotgan o'yinchoqlarning mazmun va shakliga karab tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bitta o'yinchoqda shu uch xil naqsh solish uslubini ishlatish ham mumkin. Ko'pincha bo'rttirib yasash, loyga naqsh chizish yog'ochdan naqshlar yasash loyga chizish uslubida ishlatiladigan naqshlar bilan birga qo'shib bajariladi. Bunda oldin bo'rttirib yasalgan naqshlarning ustiga har-xil naqshlar chiziladi. Naqshlarni bo'rttirib yasashda ko'rsatilgan asboblardan foydalaniladi. Chizma naqshlar uchun uchi qalam singari o'tkirlangan yog'ochdan foydalansa bo'ladi.

Bosma va bo'rttirib yasaladigan naqshlarning loy ho'l vaktida yasash osonroqdir. Chizma naqshning esa loyning ozgina nami qochganda yasalsa yaxshi bo'ladi.

Tayyor bo'lgan o'yinchoqlarni soya joylarda, salqinda quritiladi. Soya joyda ko'ritish loyning bir xil ko'rishini ta'minlaydi. Qurigan o'yinchoqlarni ehtiyotlik bilan qo'lga olib nam latta bilan artiladi, baxmal latta bilan artsa o'yinchoqlar yaltiroq tus oladi. Shundan so'ng o'yinchoqlar yana quritilib xumdonlarga teriladi.

Gilmoyadan ishlangan o'yinchoqlar shunday rang berganda 700-9000 da, chini buyumlar esa 13000 atrofida pishiriladi. Shunda rang erib yaltiraydi. Simi ayrim kullar ishkorlardan tayyorlaydilar, ishkornè kuydirib uning kuliga oq kum aralashtirib, pishirib ko'k ranglar olishadi. Bu ranglar yuqori xaroratda pishib eriydi va shishadek tovlanib jilolanadi, sir xozir keramika zavodlari uchun aloxida tayyorlanib junatiladi.

Maktablarda 9000 xaroratda ishlaydigan mufel pechlari bo'ladi, xajmi kichik o'yinchoqlarni shu pechlarda xam pishirish mumkin. O'yinchoqlar pishirilayotgan pechning yoq i xumdonning teshigidan ko'z atiladi. Kulolchilikga xos buyoqlar tayyorlash xam o'z iga xos texnologiyaga ega.

Oq rang- bu rang oq tuproq, gilvata, va 11%gacha oq toshni mayda kushib tuyyorlanadi. Uni aralashtirib attor xoliga tayyorlab buyum yo'z iga suriladi va sung naqsh chiziladi.

Yashil rang- miss kuyundisi kukini, kurgoshin kukini, kurgoshin sir va utga chidamli tuproq ya'niy gilvata kushib tayyorlanadi. Mis kukuni avval kizkish rangda bo'ladi, xumda pishirilganda yashil ranga aylanadi. Qora rang 15 % gilvata, marganets oq sidi, lasur va kurgoshin sirlaridan kushib tayyorlanadi.

Sariq rang-yondan temir kukuni, sop yog'i mayda temir chiqindilaridan foydalanilib temir kukuni miskozonga solinadi va unga gilvata kurgoshin siri xamda suv solib ezgilab tayyorlanadi.

2.4. Zardo'zlikda sovg'a buyumlar tayyorlash.

Turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy hom-ashyo bo'lib hisoblanadi. Qadimdan Misr hamda Bobilda zar va kumush ip tayyorlash texnologiyasi ma'lum bo'lgan. O'rama zar simlar dastlab Dehli shahrida ishlab chiharilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buhoroga zar iplar faqat Moskvadan, keyinchalik Angliyadan, hozirda Yaponiyadan keltirilyapti. Qoyat momiq zar tolalar buhorolik zardo'zlar tilida kalyobatun nomi bilan mashhur bo'lib, u goh zar, goh kumush ip o'rnida qo'llanilgan. U yoq i bu navni ajratish zaruriyati tuqilib qolsa zar ipga tilla kalyobatun, kumush ipga kalyobatun safed (oq) deb ataladi.

Kalyobatun ingichka metal ip bo'lib, shoyi ipga puhta o'ralgan. Kalyobatun tayyorlash uchun kumush qotishmasini oz emas, ko'p emas 84 foizgacha bo'lgan sifati ishlatilgan. Birishmi tillo chor tor -u to'rt yo'lli zar ip va eng yahshi sifatlil ipak ip. Oq ipak ipdan kumushrang gullar tikiladi. XIX asrning 90-yillari boshida 40-responi pechak g'altak ip paydo bo'lgan.

Zardo'zlikda keng ishlatiladigan hom ashyo:

1. Korcho'b ;
2. Patila;
3. Qaychi;
4. Angishvona.

"Tilla" kalyobatun qilish uchun sim ipga tilla suvi yugurtirilgan. Kalyobatunning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi turlicha bo'lgan. Kolyobatun bilan sim Buhoro zardo'zligining asosiy hom-ashyosi hisoblangan. Ayniqsa, kolyobatun HIH asrning boshida shu paytgacha bo'lgan davrga oid barcha buyumlarda uchraydi. Zardo'zlikda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun'iy ipak va tolalardan foydalaniladi.

Zardo'zlikda yana po'lakcha, olmos qubbalar, zarhal to'qalar va boshqalar ishlatiladi. Po'lakcha-zardo'zlikda ishlatiladigan kichkina piston (pirpirak). U mayda oq, qizil, sariq va boshqa ranglarda bo'ladi. Buyumga bezash uchun

qadaladigan, o'rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha. Olmos qubbalar-turli nav oltindan zardo'zlaming o'zlari yasagan zargarlik taqinchoqlariga o'hshab ketuvchi bo'rtma naqshlar, dur, hamda qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar ishlatiladi. Zarhal to'qalar-mahalliy zargarlar ishlagan, odatda qora sir va fero'z a bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan bo'ladi.

Zardo'zlikda o'ziga hos asbob-uskunalar ishlatiladi. Naqsh kompozitsiyalarini chizish uchun chizg'ichlar, yumshoq va qattiq qora qalamlar, daftar, albom, o'chirgichlar, shaffof, karton qog'ozlar kerak bo'ladi.

Zardo'zlik qurollari unchalik ko'p emas. Chambarak, ya'ni korcho'p, uning to'n, nimcha va mayda-chuyda buyumlar uchun mo'ljallangan uch turi ma'lum. Ular to'z ilishi jihatidan bir hil bo'lib, hajmlarining katta-kichikligi bilangina bir-biridan farq qiladi.

Korcho'b o'z unligi 320 santimetrgacha bo'lgan ikki teng yonli silliq yog'och dastadan iborat bo'lib, uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan kattalikka keltirish mumkin. Chambarakka bo'zdan qilingan kerish (tavar) tortilib, u tikib tayyor bo'lgan buyum bilan birga chiharib olinadi.

Zardo'zlikda qadimdan patila degan asbob ishlatiladi. Patila qattiq yog'ochdan, o'z unligi 20 santimetr bo'lgan, to'rt qirrali va nafis qilib tarashlangan, ichini kovlab qo'rqoshin quyib vazminlashtirilgan bo'ladi. Unga to'rt qavat qilib zar ip o'raladi. Bunday patilalar ipni zich qilib o'rashni ta'minlagan. Zardo'zlikda angishvona ham ishlatiladi. Ang-forscha, angusht, ya'ni barmoq, vona, bona saqlovchi degan ma'noni bildiradi.

Qo'lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa kiyiladigan metall qilof Angishvonananing ustki va yoni ignani keti qadaladigan ya'ni igna toyib ketmasligi uchun chuqurlardan iborat bo'ladi. Zardo'zlik ishida ikki hil angishvonadan foydalaniladi. Biri fabrika angishvona bo'lib, uni o'rta barmoqiga, ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasalib, chap qo'lning uchta barmoqiga taqilib islanadi.

Chann angishvonani fabrikada metallardan ishlangani ham bo'ladi.

Zardo'zlikda ikki hil qaychi bo'ladi. Qaychi ushtur gardan, ya'ni "Tuya bo'yin qaychi" degan ma'noni beradi. Tuya bo'yniga o'hshash qaychi bo'lib, gul qirqishda ishlatiladi. Oddiy uy ro'zqorda ishlatiladigan metall qaychilar ham ishlatiladi. Ignalarning fabrikasidan chiqqan, o'rtacha kattalikdagilari ishlatiladi.

Zardo'zlikda sovg'abop choynak qilofini tikish tehnalogiyasi quyidagi tartibda olib boriladi:

Avval korcho'pga bo'z tortiladi. Korcho'p oddiy yog'och ramkadir. Tortilgan bo'z ustiga Sidirg'a ko'k, to'q qizil yoq i binafsha rangdagi bahmal qadab chiqiladi. yerda, ko'rpacha ustiga o'tirib korcho'pda tikiladi. So'ngra Zardo'zlikda ishlatiladigan naqshlar kalka qog'oziga chiladi va chizilgan gulni igna yordamida ahta qilib kartonga o'tkaziladi. Kartonga o'tkazilgan gulni mahsus zardo'zlik qaychisi ya'ni ushturi garden yordamida qirqiladi. Sidirg'a ustidan kartonga qirqilgan gul tikib chiqiladi. Zar ip patilaga uch yog'i to'rt qator qilib o'raladi. Zardo'z ikkita o'ymoq angushvona yordamida tikib, o'ng qo'lning barmoqiga tikuvchilar ishlaydigan charmdan tikilgan o'ymoq kiyib tikiladi.

Hammamizga ayonki zardo'zlik ikki qo'l harakati yordamida tikiladi. Zardo'zlik ignasi kalta va nozik bo'lishi lozim bo'ladi. Tilla rangli zarni qizil hamda sariq iplar bilan kumush zarni oq ip bilan tikiladi. Tikilish etapi tugagandan so'ng, yelim tayyorlanadi. Yelim un va suv qorishmasi aralashmasidan iborat. Yelim qorishmasini korcho'p ostidan surtib chiqiladi. Yelim tikilgan gul tekis va ravon turishi uchun surtiladi. Korcho'p bir kun yelim quriguncha turadi. Qurigach tikilgan buyum korcho'pdagi bo'zdan qirqib olinadi. Choynak qilofi va ostar orasiga pahta qo'yilib tikiladi.

2.5. Kashtachilikda sovg'a buyumlar tayyorlash.

Kashta tikishda sovg'a buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab oyna xalta, choy xalta, zardevor, palak, gul-ko'rpag dorpech, buqjoma, parda, belboq, takyapo'sh (yostiq ustiga yopiladigan), do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, qamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Do'ppi - O'zbekistondakeng tarqalgan engil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Yronda va turkiy xalqlar o'rtasida, Rossiyada esa HIII asrda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, Sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, CHust, Buxoro, Samarqand, Boysun, SHaqrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Jumhuriyatimizning barcha rayonlarida do'ppi tikiladi. Uning Iroqi, Chust do'ppi, Gilam do'ppi, Chakma to'r, qizil gul, Piltado'zi, Zardo'ppi, To'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farqqiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'ladi. "qulok", "araqchin", "tusdo'ppi".

qulok - konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpoqi. Uning matoqi toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. qulok (erkaklar bosh kiyimi) qozir juda kam uchraydi.

Araqchin - sharsimon do'ppi, uni asosan keksa-lar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmato'r, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi - Keng tarqalgan yassi yo'z ali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'qri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. CHust do'ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi Sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari Sidirg'a yoq i gulli

baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo`rma usulida tikilgan bo`ladi.

Joynamoz - erga solib ustida namoz o`qiydigan to`shama. Islom diniga e`tiqod qiluvchilar ishlatishadi. U ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni meqrob shaklida tikilgan bo`ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o`lchamda bo`ladi. Ibodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, chopon, qiyiqcha, sholcha kabilardan, chunki ular diniy nuqtai nazardan poq qisoblanadi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatilgan bo`ladi.

Zardevor - uy jiqozi, u Sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum . Zardevor o`zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoq i devoriga ilib qo`yiladi. U zar ip yoq i ipak gajimli bo`lib, eni 40-70 sm, o`z unligi mo`ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

Palak - devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to`lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoq i malla bo`zga kashta tikib tayyorlangan. U so`zanadan gullarining yirikligi, zaminiga qam kashta qoplanishi bilan farqqiladi. Palakni o`rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o`simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlað ichida ko`pincha bodom, qalampir elementlari qo`llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin. Shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o`n ikki oyli palak, katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma`lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado`zlar ba`zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o`z mahoratlarini namoyon etganlar. Agar oyni ichi Sidirg'a rangda ifodalangan bo`lsa, uni , oypalak, agar naqshli bo`lsa gulpalak va qoq azo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo`l meqnati ko`p bo`lgani uchun so`zana deyila boshladi. Lekin qozir palakni qo`lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kirpech - kirpo`sh, tokchaga taxlab qo`yilgan kiyim-kechak ustidan devorni vertikal bo`sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy

buyum. Kirpech kashtalari qo`lda yoq i mashinaää tikiladi. Kirpech qo`lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o`xshatib tikilgani kirlechpalak deb yuritiladi. Bu turi qam keng ishlatiladi.

So`zana - forsha so`zani deb ham yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma`noni beradi. So`zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo`lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo`yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o`ziga xos badiiy ko`rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun palakdan farqqiladi. So`zana har bir xonadonda bo`lgan, chunki bir qiz turmushga chiqishidan oldin o`zi uchun so`zana tayyorlagan. So`zana kelinlarning sepi hisoblangan. Kambaqal oilada so`zanani malla, oq bo`zdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So`zana uchun kompozitsion joylashgan o`simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So`zana o`rtasida ko`pincha doirasimon gul tiqilib atrofi guldor islmiy naqshlar bilan bezatiladi. So`zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo`lib XIX asrgacha bo`lgan so`zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Fag`rona, O`ratepa, Shaqrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi so`zana turlaridan namunalar bor. San`atning bu turi ayniqsa O`zbekiston va Tojikiston territoriyasida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda 40 yillardan boshlab so`zana mashinada tiqilib kelmoqda.

Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyimlarga, ro`zqor buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, ziqir, jun, ipak, sun`iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metall pulakcha, qimmatbaho tabiiy va sun`iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda o`ziga xos ish qurollari mavjud bo`lib, ular o`ziga xos operatsiyani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to`qnaqich, angishvona qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi.


Chambarak asosan yog'ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Kichik kashtalarga doira chamberak ishlatiladi, chunki u qulaydir. qamma kashtalarga qam chamberak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yog'och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun o'tkir uchli 10-12 sm o'z unlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo'lishi uchun qatim 50-60 sm dan o'z un bo'lmasligi lozim, kashta chamberakda tikilsa angishvona qo'llanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga har xil yo'llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiriladigan qog'ozlar axta, yoruqlik yordamida, naqsh chizilgan qog'ozni material ustidan ko'klab chiqiladi keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado'zdan katta maqorat hamda did talab qiladi. To'g'ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi.

Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning o'rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi esa matoga gul tasviri konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. O'rim iplari kesishtirib tikilgan polotno yoq i bo'z shaklida to'qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O'zbekistonda keng tarqalgan. O'zbek kashtachiligida yo'rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo'zi, chamak, chipta xayol, baxya choklar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi. Chunonchi Shaqrisabzda yo'rma, kandaxayol, Iroqi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqand yo'rma choki bilan tikiladi.

Kashta tikish texnologiyada faoliyat turlari va bajarish tartibi quyidagilar:

1. Igna oldinlatilgan chok- Bir hil yiriklikdagi qator qaviqlar bo'lib, ularning orasi qaviqning o'ziga teng bo'ladi. Gazlamaning o'ng chetida 5 mm li qaviq bilan (gazlamaning 5-6 mm) ip puhtalanadi. Keyin ignani ikkinchi sanchiladigan nuqtaga sanchib, uni xalqa bilan teskari tomonga tortib o'tkaziladi. Gazlamaning huddi shuncha ipini o'tkazib yuborib, igna gazlama o'ngiga chiharib ikkinchi qaviq hosil qilinadi va h.k. Qaviqlarning yirikligi oq tekis chokda kashta gulining konturi

1 dan 2 mm gacha, sanama kontur choklarni tikishda 3-4 mm, shunday chok bilan tikiladigan kashta gulda 6-8 mm, qaviqlar oraliqi esa 2 mm bo'ladi. Bu chokni gazlamadan suqirilgan ip izidan va rasm bo'ylab tikish, igna oldinlatilgan chok qaviqlari 2 va undan ko'p qator bo'lishi mumkin. Chok tushirayotganda ip buralib ketmasligiga, qaviqlar hurpayib chiqishiga ahamiyat berish kerak.



Igna oldinlatilgan chokning ko'rinishi

2. Qaytma chok- bir hil yiriklikdagi qaviqlarning o'z luksiz qatoridan iborat bo'ladi. Ignani o'ngdan chapga yuritib, birinchi qaviq bilan shu qaviq yirikligidagi, masalan gazlamaning 4 ta ipi kengligidagi oraliq hosil bo'ladi. Ikkinchi qaviqni tushirish uchun ip chapdan o'ngga yotqizib birinchi qaviq tugagan joyidagi nuqtaga igna sanchiladida, uni 2 chi qaviqdan gazlamaning 4 ipi kenglikda chaproqda gazlama o'ngga chihariladi. Shunday qilib, teskari tomondagi qaviq, o'ng tomondagi qaviqqa haraganda 2 barobar yirik bo'ladi. 3 chi va undan keyingi qaviqlarni tushirishda ularning o'zidan oldingi qaviq tugagan joyga igna sanchiladi.



Qaytma chokning ko'rinishi

3. Suv chok- Bir-biriga zich joylashgan qator qiya qaviqlardan iborat bo'ladi. Bu chokni o'ngga tomon yoq i o'zidan oldinga haratib yo'naltirib tikish mumkin. Gazlamaga o'zidan oldinga haratib birinchi qaviq tushirgandan keyin gazlama

teskarisidan ipli ignani o'ziga haratib o'tkaziladi-da, dastlabki qaviq o'rtasining chap tomonidan chiharib olinadi. Qaviq ipni tortib, o'zi tomon yotqiziladi, chap qo'lining bosh barmoqi bilan gazlamaga bosib turiladi. Ikkinchi qaviqni tushirishda, ignani birinchi qaviqdan yuqoriga sanchib, ikkinchi qaviq o'rtasining chap tomonidan chiharib olinadi. Shunday qilib, qaviqlarni o'zidan oldinga haratib yotqizib, ignani o'zi tomon yo'naltirib chok solinadi. Bunda har bir yangi qaviq o'zidan oldingi qaviqdan yarim qaviq oldinga o'tadi.

Suv chokni tikayotganda ip doim bir tomonda-chapda yoq i o'ngda bo'lishi kerak. Tikayotganda ip yo'nalishini o'zgartirib bo'lmaydi, chunki unda chok strukturasi bo'z ilib qoladi. Ba'zan kashta gulda ingichka novda -qalinlashib yo'qon shohchaga aylanadi. Uni, gazlama o'ngiga ignani oldingi qaviqning o'rtasidan pastroqdan chiharib, yirikroq qaviq bilan tikish mumkin.



Suv chokning ko'rinishi

4. - Oldin to'g'ri chiziq bo'ylab yog'i kashta gulining konturi bo'ylab ignada oldinlatilgan chok bilan qaviqlar tushiriladi. Keyin gazlamani ilmay har bir qaviq tagidan ipli (ko'pincha boshqa rangdagi ipli) igna yuqoridan pastga tomon o'tkaziladi. Agar ipli ignani qaviqlar tagidan navbatma-navbat yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga o'tkazilsa, yana bir hil chilvir chok hosil bo'ladi.



Chilvir chokning ko'rinishi

5. **Iroqsi-mon chok** - Gazlamadan suqirib chiharilgan ikkita ip yo'z i bo'ylab yoq i ihtiyoriy konturli kashta gulning motividan tikiladi. Chokning tekis yo'li katta

murakkab kashtalarni tikishda qo'shimcha chok sifatida, Shuning dek, gazlama bo'laklarining ulangan chokini yashirish uchun tikiladi. Bunda kashta gulning goh bu tomoniga navbatma-navbat igna sanchib, qaviqlar chapdan o'ngga tomon joylashtirib boriladi. Gazlamaga igna sanchilgan joylar oraliqi bir hil bo'lishi kerak. Yo'lning o'rtasi bo'ylab qaviqlar chalishib boradi. Har bir yangi qaviq oldingi qaviq ustiga tushadi.



Iroqsi-mon chokning ko'rinishi

III.Xulosa.

Mamlakatimizda sog'lom muhitni shakllantirish va oila, o'quv muassasalarida yuksak ma'naviy, axloqiy muhitni qaror toptirish, mamlakat va yurt obodonligi uchun jonini fido qiladigan avlodni yetishtirish bizning ma'suliyatimizga kiradi. Hayot saboqlaridan tajriba ortirish, Vatanni muqadassligini shuningdek vatanimizda yaratilgan va bunyod qilingan barcha nodir buyum ashyolari asrab avaylashga yo'naltirilgan tarbiya shaklini ishga solish muhimligini his etmoq zarur.

Yuqoridagilarni inobatga olib yigit – qizlar tafakkuri, ongini yangicha o'zgarishlarga alohida e'tibor ajratilmoqda.

Aynan bunday o'zgarishni yurtning milliy farovonligini oshirishning asosidir. Bu kelgusida ommaviy madaniyatning yuksalishiga qaratilgan yagona omil bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonning mustaqilligi milliy madaniyatimiz, ayniqsa xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi. Qadimdan rivoj topib kelayotgan naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, badiiy kulolchilik, misgarlik, kashtachilik turlari yana gurkirab o'sa boshladi, uning milliy badiiy an'analari yanada rivojlanmoqtsa. San'atni unutilib ketgan ayrim turlari hisoblangan matoga gul bosish, suyak va tosh o'ymakorligi, zargarlik, pichoqchilik, gilamchilik turlari qayta tiklandi. Amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining yangi turlari chinni haykaltaroshligi, charmda miniatyura ishlash, inkrustatsiya, qovoq shakliga naqshlar bilan ishlov berish kabi turlari paydo bo'ldi va bu yo'nalishlarda ustalar yuksak ko'taringilik va mahorat bilan meqnat qilmoqdalar.

O'zbekistonda milliy amaliy san'at va hunarmandchilikni rivojlantirishda Respublika Vazirlar Mahkamasining 10 iyul 346 sonli harorida 1997 yilgi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atning yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida" gi harori alohida ahamiyat kasb etdi. Ana shu haror asosida "Musavvir" ilmiy ishlab chiharish Markazi tashkil etilib, uning qoshida "Hunarmand" uyushmasi faoliyat ko'rsata boshladi. Bu uyushma o'z saflariga minglab tajribali, Shuning dek, yosh ustalarni birlashtirdi.

Ularning ijodiy ishlari uchun har tomonlama shart sharoitlar yaratib berilmoqda, ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatilmoq da. Uyushmaning deyarli barcha viloyatlarda bo'linmalari ochilgan bo'lib, u erdagi ustalar maqalliy amaliy san'atni milliy badiiy an'alarini rivojlantirib yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoq dalar. qozirgi zamon xalq ustalaridan A. Akbarov, A. Abdullaev, A Umarov, S. Raqmatullaev, A.Karimov, M. Murodov, B. Raqmonberdiev, N. Oblaqulov va boshqa ustalar xorijiy mamalakatlarida o'tkazilgan qator ko'rgazmalarda o'z asarlari bilan qatnashib kelmoqdalar. Jumladan, Frantsiyaning Parij shahrida, Olmoniyaning Berlin shahrida, Malaziyaning Kuala Lumpur shahrida, Yaponiyaning Tokio shahrida, Hindistoning Dehli shahrida, Moskva va Olmaota shahar larida o'tkazilgan ko'rgazmalar shular jumlasidandir.

Xullas, O'zbekistonning mustaqillik yillarida o'zbek xalq amaliy san'ati o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga kirmoqda. Azaldan mamlakatimizning madaniy markazlaridan hisoblangan Samarqand, Buxoro, Toshkent, G'ijduvon, Marg'ilon, Xiva, Rishton, Shofirkon, Urgut, Xo'jayli, Qo'qon, Nurota, Qurumsaroy, Asaka, Chimboy, Sho'rchi, Termiz, Urganch, Jarqo'rqon, Denov, G'allaorol, Jizzax, Zomin, Namangan, Kosonsoy, Qarshi, Sherobod, Beshkent, Xonqa, Nukus kabi shahar va qishloklarimiz ustalari o'zlarining qadimiy shuhratlarini tiklash maqsadida samarali mehnat qilmoqdalar.

Mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan har bir intilishi, yangilanishini, zilol chashmaga qiyoslash mumkin. Chashmalar yig'ilib ulkan daryoni hosil etganidek, islohotlar jamujamlikda "O'zbekiston - bunyodkorlar mamlakati" degan ulkan haqiqatni namoyon etadi. Biz kelgusi pedagoglar uzluksiz ta'lim jarayonida talaba-yoshlarda Vatan, oila, mahalla, millat ishiga sadoqat, yurt, xalq, mehnatkash fuqaro manfaatini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yish tuyg'usini tarbiyalash va fidoiy, inson parvar, adolat parvar, mehnat sevar fuqaro bo'lish ishtiyoqi va ehtiyojini tarkib toptirish hamda ularga fuqarolik burchi, fuqarolik hissi, fuqarolik ma'suliyati, fuqarolik majburiyati kabi tushunchalar haqida ma'lumot berib, bu tushunchalarni o'zlarida tarbiyalash malakalarini hosil qilish;

- Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni yaratuvchi, uni e'zozlovchi hamda uni turli ofatlardan asrab-avaylovchi, himoya qiluvchi fuqaro bo'lish his-tuyg'usini har bir talaba – yoshning shaxsiy ehtiyojiga aylantirishimiz zarur.

Conclusion.

Our responsibility includes in forming healthy great spiritual well – bred environment , raising generation who can stand for Kis or her motherland . It is important to feel that we must improve our experience from life , we must feel that motherland is precious and we must work with education which is directed to unique things which were done in our country.

Taking into my consideration what were said above Deep attention is given to boys and girls wise , thought and outlook.

These historical buildings have been standing for many years , Toj – mahal in India, Registan in Samarkand , Ark, Minorai kalon, Samaniy's mosque in Bukhara and others we have such proudful heritage which make us famous all over the world, that's why we must save our rich heritage and leave them to generation as it is origin is our duty and righty.

Art reflects feelings, idea and bravenes which people have done during his life.

Artists described reality in half at the beginning level of Uzbek Art. Taking into my consideration that my research paper is just about this theme therefore I tried to give more attention to write the plot and tried to stop at the theme. Peried of writing I summerize it deeply.

I am grateful to my teacher who helped me to write this paper.


VI. ILOVA



Yog'och o'ymakorligida sovg'a buyum bajarish (penal)



Kulolchilikda sovg'abop milliy o'yinchoqlar yasash.



Naqqoshlikda sovg'a buyum bajarish (quticha)



Kashtachilikda sovg'a buyum bajarish (ayollar sumkachasi)



Zardo'zlikda sovg'a buyum bajarish (choynak g'ilofi)



Kashtachilikda sumkacha va do'ppilarning ko'rinishi



Naqqoshlik san'ati namunalari



Kulolchilikda milliy o'yinchoqlar.



Miniatyurada sovg'a buyumlar tayyorlash



Yog'och o'ymakorligi lavhlar, penallar va qutichalarning ko'rinishi

V. Foydalanilgan adabiyotlar

Prezident I.A.Karimov asarlari.

1. I.A.Karimov "Yuksak ma`naviyat engilmas kuch" Toshkent-2008
2. I.A. Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q / Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. - T.: O`zbekistan, 1999. 7-jild. 132-155 bb.
3. I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" T.: O`zbekistan, 1999y, 18-bet
4. Xalq badiiy qunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`qrisida. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, - T: "Toshkent oqshomi" oynomasi, 2-aprel, 1997-yil, 38-son.
5. "Ma`naviyat va komillik" Toshkent 1997

Qo'simcha adabiyotlar.

1. Axlok va odobga oid qadis namunalari. - T.: "Fan", 1991
2. R.Xasanov "Amaliy bezak san`ati metodikasi" Toshkent 2003 3. "O`zbekiston xalqlari tarixi" Toshkent fan nashriyoti 1993
3. I.Jabborov "O'zbek Xalq etnografiyasi" Toshkent 1996
4. Bulatov S.S. "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati", -T., "Mehnat", 1991.
5. Bulatov S.S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o`ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug'ati. – T.: “Mehnat”, 1991.
6. Bulatov S.S, Ashurova M.O. Amaliy san'atdan qisqacha izohli lug'at. – T.: qomuslar bosh tahririyati. 1992.

7. Azimov I. "O'zbekiston naqshu-nigoralari" -T., Adabiyot va san'at nashri. 1987yil.
8. Apuxtin O.K. "Badiiy naqsh maktabi", -T., "O'qituvchi", 1969.
9. Barta CH. "Mohir qo'llar uchun 200 ish", -T., "O'qituvchi", 1967.
10. Zohidov P.SH. "Me'mor san'ati", -T., Adabiyot va san'at nashr. 1978.
11. Ganchorova P. A. "Buxoro zardo'zlik san'ati", Toshkent, 1986.
12. «O'zbekiston san'ati» A.Xakimov taxriri ostida. Toshkent 2001 y.

Internet saytlari.

1. www.ziyonet.uz .
2. <http://www.rarlab.com>.
3. www.artmuseum.ru.
4. www.hunar.uz .
5. [Kitob.uz /files](http://Kitob.uz/files).
6. www.askives.com.kashta

Mundarija

Reja	1
Summary	2
Kirish	3-10
I.Bob. O'zbekiston xalq amaliy san'ati haqida ma'lumot.	11-13
1.1. O'zbekiston xalq amaliy san'ati tarixi	
1.2. Xalq amaliy san'ati turlari	14-23
II. Bob. Amaliy san'atda sovg'a buyumlar tayyorlash jarayoning borishi	24-27
2.1. Naqqoshlikda sovg'a buyumlar tayyorlash	
2.2. Yog'och o'ymakorligida sovg'a buyumlar tayyorlash	28-33
2.3. Kulolchilikda milliy o'yinchoqlar tayyorlash	34-37
2.4. Zardo'zlikda sovg'a buyumlar tayyorlash	38-40
2.5. Kashtachilikda sovg'a buyumlar tayyorlash	41-47
III.Xulosa	48-50
Conclusion.	51
IV. Ilovalar	52-62
V. Foydalanilgan adabiyotlar	63-64